

## ANNOTATSIYA

“Boshlang’ich sinf o’qish darslarida ona haqidagi asarlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o’rganish usullari” mavzusidagi malakaviy ishda boshlang’ich sinf o’qish darslarini tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlari, boshlang’ich sinf o’qish darslarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi o’rni, ta’lim jarayonida qo’llaniladigan texnik vositalar va ulardan foydalanishning ahamiyati haqida nazariy ma’lumotlar hamda boshlangich sinf o’qish darslarida xalq og’zaki ijodidan foydalanish orqali o’quvchilarning ona haqidagi tushunchalarini o’stirish, 2- sinf o’qish darslarida o’quvchilarga ona haqidagi asarlarni o’rgatish usullari hamda boshlang’ich sinf o’quvchilariga ona haqidagi asarlarni o’rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari haqida fikr yuritilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
Pedagogika fakulteti

5111700-BT va STI yo'nalishi,  
IV bosqich, 401-guruh talabasi

**TO'XTASINOVA (ABDULLAYEVA)**  
**ADIBA SHOKIRJON QIZINING**

*bakalavr darajasini olish uchun yozgan*

# BITIRUV

# MALAKAVIY ISHI

*Mavzu: Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ona haqidagi  
asarlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish  
usullari.*

Ilmiy rahbar:

Shermatova M.

Namangan – 2015 yil

**Reja:**

## **KIRISH**

### **I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI**

1.1. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

1.2. Boshlang'ich sinf o'qish darslarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni

1.3. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnik vositalar va ulardan foydalanishning ahamiyati

### **II BOB. BOSHLANG'ICH SINFI O'QISH DARSLARIDA ONA HAQIDAGI ASARLARNI O'RGATISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH**

2.1. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish orqali o'quvchilarning ona haqidagi tushunchalarini o'stirish

2.2. 2- sinf o'qish darslarida o'quvchilarga ona haqidagi asarlarni o'rgatish usullari

2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona haqidagi asarlarni o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari

## **TAJIRIBA-SINOV ISHLARI**

## **XULOSA VA TVSIYALAR**

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                  |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 1. Kirish.....                                                                                                                                   | 3  |
| 2. I bob. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etishning nazariy asoslari.....                                                       | 8  |
| 3. 1.1. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....                                                      | 8  |
| 4. 1.2. Boshlang'ich sinf o'qish darslarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni...                                                               | 14 |
| 5.1.3. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnik vositalar va ulardan foydalanishning ahamiyati.....                                              | 19 |
| 6. II bob. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ona haqidagi asarlarni o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyadan foydalanish.....            | 29 |
| 7. 2.1. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish orqali o'quvchilarning ona haqidagi tushunchalarini o'stirish..... | 29 |
| 8. 2.2. 2- sinf o'qish darslarida o'quvchilarga ona haqidagi asarlarni o'rgatish usullari.....                                                   | 43 |
| 9. 2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona haqidagi asarlarni o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari.....      | 55 |
| 10. Tajriba-sinov ishlari.....                                                                                                                   | 71 |
| 11. Xulosa va tavsiyalar.....                                                                                                                    | 78 |
| 12. Foydalanilgan adabiyotlar.....                                                                                                               | 81 |

## **Kirish.**

Ulug' donishmandlar Vatanga eng munosib ta'rif izlaganda, uni Ona siymosiga qiyos etganlarida katta ma'no bor. Dunyoda "muqaddas" degan so'zga eng munosib zot ham – Onadir. Onani e'zozlash – bizning millatimiz, xalqimiz uchun oily qadriyat darajasidga ko'tarilgan fazilat.

Islom Karimov

**Mavzuning dolzarbligi.** "Mustaqillik – bu hech kimga qaram bo'lmasdan, o'z milliy manfaatlarimizni, uzoq va davomli maqsadlarimizni ko'zlab iqtisodiyotimizni barqaror sur'atlar bilan o'sishini ta'minlash, aholimizning farovonligini, xalqaro maydonda Vatanimizning obro'-etiborini munosib darajaga ko'tarishdir. Shu bilan birga ertangi kunimizni yanada yuksaltirishga mustahkam zamin yaratishga qurbi-qudrati yetadigan, hech kimdan kam bo'lmasdan hayotga kirib kelayotgan yetuk va barkamol, mustaqil fikrlaydigan yangi avlodni kamol toptirish demakdir"<sup>1</sup>

Ona tilini o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarda o'z ona tilida fikrni to'g'ri, aniq, ravshan va go'zal ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

So'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda tuza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir so'z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olishni o'rgatish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi.

Biz yangi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitda faqat bilimli kishilarni emas, balki ijodkor, tadbirkor kishilarni ham yetkazib berishimiz lozim. «Bilimli kishi» bilan «tadbirkor kishi» orasida farqi bor, albatta. Bilimli shaxs bilimga ega bo'lsa ham,

---

<sup>1</sup> Karimov I. Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan mustaqil O'zbekiston!/"Xalq so'zi" gazetasi. №117. 2013 yil.

lekin bilimini har vaqt ham amaliy faoliyatda qo'llay olmaydi. Tadbirkor shaxs esa faqat bilimli bo'lib qolmasdan, balki egallagan bilimini sharoitga mos ravishda qo'llay olish ko'nikmalariga ham egadir. Shuning uchun “bilimlining bilimi omborda yotgan sara urug' bo'lsa, tadbirkorning bilimi yerga ekilgan dondir”<sup>1</sup>.

O'quvchilarga odob-axloq sifatlarni singdirish maktabda o'qish mashg'ulotlarining bosh vazifasidir. Shuning uchun birinchi soatdan oxirgi mashg'ulotgacha o'qish darslari o'quvchilarda odob-axloq sifatlarni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

O'quvchilarda odob-axloq sifatlarni rivojlantirishda ona haqidagi asarlarning ahamiyati va o'rnini ham juda katta bo'lib, o'quvchilar ona haqidagi asarlar orqali ravon, tekis, chiroyli jumladan foydalangan holda so'zlashga o'rganish bilan birgalikda, ona va onaning o'g'itlari haqida ma'lumotlarni ozlashtirib boradilar.

“Bizning mana shu qisqa – yigirma ikki yillik tariximizda mustaqillikka erishish, milliy davlatchiligimiz, ertangi kunimizni qurishga, yurtimizni turli balo-qazolardan asrashga, O'zbekistonimizni rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi, jahon maydonida munosib obro' topishida eng asosiy omillar nima deb so'ralsa, men boshqa mezonlarni inkor qilmagan holda, bir fikrni alohida ta'kidlab aytgan bo'lardim: bu yo'ldagi eng muhim omil – bu ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom, hech kimdan kam bo'lmasdan, boshini baland ko'tarib yashaydigan, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga, xalqimiz intilayotgan kelajagi buyuk davlatni barpo etishga qodir bo'lgan barkamol avlodimiz, desam ayni haqiqatni aytgan bo'laman”<sup>2</sup>. Darhaqiqat “Bolaning psixologik va jismoniy rivojlanishdagi eng asosiy davr – bu boshlang'ich sinf davridir”<sup>3</sup>.

Boshlang'ich sinflardagi dars mashg'ulotlarida, xususan o'qish darslarida o'quvchilarga axloqiy sifatlarni shakllantirishda she'riy asarlarning yuqorida ta'kidlaganimezdek ahamiyati katta.

---

<sup>1</sup> Gulomov A, Qobilov B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. Uslubiy qo'llanma.–T.,2006 yil.

<sup>2</sup> Karimov I. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish-yorug' kelajagimizning asosiy omilidir.//”Inson va huquq” gazetasi. 2-bet. 2013 yil №147

<sup>3</sup> O'sha manbaa 3-bet. 2011 yil.

O'zbek xalqi qadim-qadimdan odob-axloq normalariga qattiq rioya etgan xalqdir. Salom alikdan tortib, toki kattalarni hurmatda, kichiklarni izzatda ko'rish odobiga muomalasining barcha qirralari o'zbek millatida mavjud va ularni albatta singdirib borish o'qituvchilarning oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Zero, "O'z ona tilini bilmagan odam o'z shajarisini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam. Kishi tilini bilmaydigan uni dilini ham bilmaydi"<sup>1</sup>.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari.** Ushbu bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat: O'qivchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda ona haqidagi asarlardan keng foydalanishni yo'lga qo'yishni ana shu orqali ularda odob-axloq malakalarini rivojlantirish.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

- Mavzu yuzasidan adabiyotlar ko'rib chiqildi;
- Bugungi kunda odob-axloq sifatlarni shakllantirishda o'qituvchilar duch keladigan muammolar o'rganib chiqildi;
- Ona haqidagi asarlardan foydalanib o'quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish ishlarini amalga oshirish yo'llari o'rganilib, darslarda ulardan foydalanish yo'lga qo'yildi;
- Mavzu yuzasidan tajriba sinov o'tkazilib, samarali metodlar tanlab olindi va tahlil qilindi;
- Ona haqidagi asarlar orqali axloqiy sifatlarni shakllantirishga oid darslar ishlanmasi tuzildi;

Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi:

- Muammoning amaliyotdagi holatini aniqlash;
- Darslarda o'quvchilarni faolligi, mustaqil fikrlashiga e'tibor qilish;
- Axloqiy sifatlarni shakllantirishga oid bilimlarni shakllantirishda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni aniqlash;

---

<sup>1</sup> Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent 69-bet.

- Odob-axloq qoidalarini o'rgatishning turli samarali yo'llarini ishlab chiqish;
- O'qtiladigan mavzular yuzasidan darsning ishlanmasini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llash;
- O'tkazilgan tajriba ishlari natijalari tahlili asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;

“Biz farzandlarimizni nafaqat jismoniy va sog'lom o'sishi, balki ularning zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan inson bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob bera oladigan barkamol avlod bo'lib, voyaga yetishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz”<sup>1</sup>.

### **Tanlangan ob'yektlar va tadqiqot usullari.**

Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan vazifalarni hal qilish maqsadida quyidagi tadqiqot metodlar qo'llanildi:

1. Davlat ta'lim standarti tahlili. Internet yangiliklari.
2. Mavzuga oid darslarni kuzatish.
3. O'qituvchi va o'quvchilar orasida so'rovnoma o'tkazish.
4. Tadqiqot natijalarini statistik tahlil qilish.

Ushbu bitiruv malakaviy ishni nazariy qismini amaliyotga tadbiiq etishda tadqiqot ob'yekti sifatida Namangan shahar 7-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinflari tanlab olindi.

“O'zbek modeli” deb tan olingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” odamlarning, birinchi navbatda unib o'sib kelayotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, qisqacha aytganda bu dastur o'z fikriga, o'z qarashlari va qat'iy grajdanlik pozitsiyasiga ega bo'lgan, har tomonlama barkamol, yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi”<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Karimov I. Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent. 2010 yil.

<sup>2</sup> Karimov I. Yuksak bilimli va intellectual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti//“Xalq so'zi” gazetasi. 2012 yil 18 fevral № 35- 2-bet



**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.** Ushbu bitiruv malakaviy ishida keltirilgan nazariy fikrlar, adabiyotlar tahlili ishning nazariy ahamiyatini belgilab beradi. Malakaviy ishga doir tajribalar, metodik tavsiyalardan, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z pedagogik faoliyatlarida foydalanishlari mumkin. Bu ishning amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

O'quvchilarni darslarda erkin fikrlashini faolligini ta'minlash mumkinligi nazariy jihatda asoslab berildi. Amaliy ahamiyati esa ushbu metodlar orqali tashkil etilgan darslar Davlat ta'lim standartlariga to'liq javob bera oladi.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 bob, 7 band, tajriba-sinov ishlari, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I bob. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etishning nazariy asoslari**

### **1.1. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari**

Mustaqil O'zbekiston ta'lim muassasalarining odob-axloq tarbiya tizimi – bu o'zbek xalqining o'ziga xos milliy-madaniy fe'l-atvori, axloq qoidalariga va milliy mustaqillikni mustahkamlashning tarbiyaviy talablariga asoslanuvchi, xalq hayotining barcha jabhalari bilan chambarchas bog'liq, hech kimdan kam bo'lmagan barkamol avlodni shakllantirishning pedagogik jarayonidir.

O'zbek xalqining ma'naviyati haqiqatgo'y va adolatli bo'lish, jaholat va qabihlik yo'lini to'sish, insoniylik, birodarlik, mehmondo'stlik, poklik, xushxulqilik, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga chaqiradi. O'zbek xalqining urf-odatlar, turmush tarzi, ta'lim-tarbiya, ma'daniyat an'analar, moziyning uzoq-uzoq asrlariga borib tarqaladi. Xozirgi va kelajak avlodlarimiz kishilari o'zbek milliy ma'naviyati, yaxshi bilimlari va unga rioya qilishlari lozim. Shundagina jamiyat to'q, farovon, kishilar osoyishta va madaniy hayot kechiradilar. Bu hamisha hamma avlod tomonidan e'tirof etilgan qoidadir.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. o'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi.

O'qish darslarda ona haqidagi asarlar orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda «O'qish kitobi» darsliklariga ona, ota-onalarning, ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va

bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlool va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va “ O'qish” o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Ma'lumki, sinfda o'qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadi. O'quvchilarni matn bilan tanishtirish o'qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi.

Tayyorgarlik bosqichi yozuvchilar haqida, onaga oid asarlar haqidagi ma'lumot berish, o'quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqea-hodisalarni idrok qilish, asar pafosini his etish, notanish va ko'p ma'noli so'zlar, murakkabroq tarzdagi obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Ona haqidagi asarlar ona, buvijonlar, opa - singillar haqida bo'lsa, bu asarlarni sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Matn bilan dastlabki tanishuvdan so'ng quyidagicha savollar bilan murojaat qilish darsda o'quvchilarning faolligini oshiradi:

1. Hikoyadagi qaysi ona epizodni qiziqarli deb o'ylaysiz?
2. Hikoya qahramonlaridan qaysi birining xatti-harakatini ma'qullaysiz? qaysi birining fe'l-atvori, o'zini tutishi sizga yoqmadimi?
3. Hayotda shunday kishilarni, onalarni uchratganmisiz?

“O'qish kitobi” darsliklaridan turli mavzudagi asarlar o'rin olgan. Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, ota-onaga hurmat, onaga hurmatda, e'zozda bo'lish, mehnatsevarlik kabilar o'qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo'lib, 1-sinfda “ Biz –buyuklar avlodi” bo'limida “Ona sabogi” (Giyos Komilov), “Ko'klam – yashardi olam” bo'limida “Ona allasi” (Rivoyat), “Mehribon oyijonim” (Po'lat Mo'min), “Ota-ona” (Tolob Yo'ldosh), 2-sinfda “Zumrad bahor bahridiling ochar” bo'limida “ Alisherning onasi” ( Abdulla oripov), “Onam” (Umarali Qurbonov), “Ona yurtim-oltin beshigim” bo'limiga kiritilgan

‘O‘zbekistonim’ (H. Imonberdiev), ‘Istiqlol’ (J. Jabborov), ‘O‘lka’ (E. Vohidov), ‘Yur tog‘larga’ (U. Nosir), 3-sinfda ‘Go‘zal fazilat-inson husni’ bo‘limida ‘Onanai rozi qilish haqida’ hadis, ‘Ota-onani hurmatlash haqida’ Qobusnoma, ‘Bobur va Humoyun’ (Primqul Qodirov), ‘Ota-ona duosi’(Savo Ochil), Ona mehri’(O‘ktam Usmonov) ertagi, ‘Ona bitta, Vatan yagona’ bo‘limidagi ‘Vatanni suymak’ (A. Avloniy), ‘Vatan mo‘tabardir’ (X. Davron), ‘Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi’ (Tohir Malik), 4-sinfda ‘O‘zbekiston - Vatanim manim’ bo‘limidagi ‘Serquyosh o‘lka’ (Z. Diyor), ‘Iqboli buyuksan’ (A.Oripov), ‘Toshkentnoma’ (M. Shayxzoda) kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganiladigan ona haqidagi asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, ona, ota-ona, ona tabiat, yil fasllari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o‘laroq, boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘qish malakalarini shakllantirish, asar ona haqidagi matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi, asosan ona haqidagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy - estetik tarbiya bilan chambarchas bog‘lab olib boriladi.

Shunga ko‘ra o‘qish darslarining yetakchi xususiyati ona haqidagi asarlarni o‘rgatish o‘quvchilarning savodxonligini ta'minlash, ota-onaga mehrli qilib tarbiyalash bilan birga badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O‘qish ta'limi bo‘yicha o‘quvchilarni faqat ona haqidagi asarlarni matni bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo‘lmaydi. Negaki ona haqidagi asarlarni matni zaminidagi tarbiyaviy g‘oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Ona haqidagi asarlarni o'ragtish jarayonida o'qituvchi savollariga o'quvchilarning o'z so'zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqea - hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo'lmasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o'quvchilarning o'qilgan matn mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi. Negaki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, o'quvchilarning o'zlarini ham savol tuzishga o'rgatish lozim. K. D. Ushinskiy qayd etganidek, to'g'ri qo'yilgan masalaning o'zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o'quvchining dars mavzusi bilan bog'liq jihatlariga e'tibor berishi asarda tasvirlangan voqea-hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo'l ochadi. Shuning uchun ham matn yuzasidan savol tuzish o'quvchini ongli va tushunib o'qishga yo'llaydi. Uning o'ziga xos xususiyatini o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish orqali dunyoqarashlarini milliy istiqlof mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlof, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlof, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularini uyg'otishdir.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Ular o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Darsliklardagi har bir ona haqidagi mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, ota - onaning farzandga mehri – muhabbati, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar

tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi asrlar shular jumlasidandir. Masalan, 3-sinf o'qish darsligida "Go'zal fazilat-inson husni" bo'limida "Bobur va Humoyun" matnida Humoyunning betob bo'lganida onasining iztirobidan Boburning o'rtangani va uning xudoga nolasi haqida fikr yuritiladi. Shundan ko'rinadiki, ota me'rosi, ota-ona o'g'itlari, ota-ona tarbiyasi, ayniqsa ona mehri bizga tarixdan me'ros bo'lib kelgan.

Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, ota-ona oldidagi vazifasi, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga bo'lgan sadoqat, otaga bo'lgan do'stona munosabat, onaga bo'lgan muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan ona haqidagi asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar. Ona jamiyat rivojining bir negizidir. Asarlarda onani vatanga qiyoslab o'rgatiladi. Demak, jamiyatda onaning orni beqiyos. O'quvchilar jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada ayniqsa, milliy istiqlol bilan bog'liq H. Imonberdievning "O'zbekistonim", J. Jabborovning "Istiqlol" (2-sinf), A. Rustamovning "Bayroq nima?", A. Obidjonning "O'ktam avlod" (3-sinf), S. Barnoevning "Mangulikka tatigulik kun", Ullibibining "E'zoz" (4-sinf) mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ona haqidagi asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, onalar mavzusi ham nazarda tutiladi. Masalan, ona timsoli tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga mangulik maydoniga sayohat uyushtirib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar, qariyalar bilan, onaxonlar bilan uchrashuvlar, yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Umuman “O`qish kitobi” darsliklaridagi barcha mavzular o`quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug`atini boyitishga, og`zaki va yozma nutqini to`g`ri shakllantirish, nutq madaniyatini o`stirishga ham qaratiladi.

O`quvchilar darsliklar yordamida o`zlashtiriladigan bilim, ko`nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo`lishini tushunib etishlariga erishish o`qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

O`qish darslari oldiga qo`yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O`quvchilarda yaxshi o`qish sifatlari: to`g`ri, tez, ongli, ifodali o`qish malakalarini shakllantirish.

2. O`quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o`rgatish, kitobga muhabbat uyg`otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko`tarish.

3. O`quvchilarning atrof-muhit, ota-ona, ona haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O`quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk, ota-onaga, onaga mehr-muhabbat ruhida va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O`quvchilarning bog`lanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini o`stirish.

6. O`quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo`lib, ular zamonaviy o`qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o`zaro bog`liq holda sinf va sinfdan tashqari o`qish mashg`ulotlari jarayonida ona haqidagi asarlarni organish orqali hal qilinadi. Boshlang'ich sinf o`qish darsligida ona haqidagi asarlarni rejali ravishda o`rgatib borish, o`quvchilarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning bir me'zoni bo`lib xizmat qiladi.

## **1.2. Boshlang'ich sinf o`qish darslarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o`rni**

Boshlang'ich sinfda o`qish darsi o`z mazmuni, o`quvchilar fikrini, dunyoqarashini, nutqini, bola shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari

bilan boshqa o'quv-predmetlari orasida muhim o'rin tutadi. O'qish darslari jarayonida o'quvchilarning o'qish malakalari takomillashadi. O'quvchilarning to'g'ri, ravon, ongli va ifodali o'qish, badiiy asar g'oyasini tushunish, asar yoki voqea-hodisaga o'z fikrini bildirib olishqobiliyatlari o'sib boradi. "O'qish kitobi" dagi turli she'rlar, hikoya va maqollarni o'qish va ular ustida ishlash natijasida o'quvchilarda borliq va voqelik haqidagi bilimlari, tushunchalari kengayib boradi. O'quvchilar ta'limning dastlabki kunlaridan boshlab tabiat, jamiyat, kishilar mehnati va hayvonlarning yashash faoliyatlari haqida va bir qator shunga o'xshash bilimlarni o'zlashtirib boradilar.

Birinchi sinfda savod o'rgatish davri tugagandan so'ng o'qish darslari boshlanadi va keyingi sinflarda davom ettiriladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga matematika, yozuv, tabiatshunoslik, rasm, musiqa, jismoniy tarbiya, mehnat ta'limi kabi fanlardan boshlang'ich bilimlarni berib boradilar. O'qituvchi uchun eng muhimi shundan iboratki, bola o'zi olayotgan bilim, unda shakllanadigan his-tuyg'u hayotda zarur va ahamiyatli ekanini tushunib yetsin. O'qish darsi orqali o'quvchilarga mana shunday xislatlarni singdirib boriladi. Bu o'rinda o'qish darslari muhim o'rin tutadi. Sinfda o'qish darslarida quyidagi vazifalar bajariladi:<sup>1</sup>

1. O'qish malakalarini takomillashtirish, o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari, to'g'ri, tez ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish;

2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish,

Qanday tovushni anglatishini bilgan holda tez, ongli, to'g'ri va ifodali o'qiy oladi.

O'qish darsini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi esa boshqa fanlarni ham tez va osongina o'zlashtiradi. Ana shunday ekan, savod o'rgatish davridan boshlab o'quvchilarni darsga qiziqishini oshirish, ularni to'g'ri, ravon, xatosiz, ifodali qilib o'qishga o'rgatib borish kerak.

O'qish darslari o'quvchilar fikrini va nutqini o'stirish, vatanga muhabbat ruhida tarbiyani amalga oshirish hamda o'quvchi shaxsini har tomonlama

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. T., "Noshir" nashriyoti. 2009 y. 68-bet.



rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan ham boshqa fanlar orasida alohida o'rin tutadi. Chunki o'qituvchi o'quvchilarga o'qishni tugutish bilan bir qatorda turli narsalar va ko'rgazmali qurollar yordamida ularning tasavvur tushunchalarini kengaytiradilar. Dars davomida o'tilgan turli badiiy asarlar orqali asarda ishtirok etgan obrazlar namunasida tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi.

Mana shu ta'sir o'quvchilar hayotida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi, ularni axloqiy yo'lga yetaklashi lozim.

O'qish darslarining asosiy qismini o'quvchilarning o'qishiga ajratish lozim. O'quvchilar turli xildagi aniq topshiriqlar asosida bir marta o'qitiladi va o'qish mas'uliyatlari orttirib boriladi. O'quvchilarga qo'yiladigan bunday talablar va topshiriqlar dastlab sodda va oson bo'lib, asta-sekin murakkablashtirib boriladi.

O'qish darslari davomida o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish va nutq o'stirish masalasiga alohida e'tibor beriladi. O'qish darslarini o'tishda darslikdagi va boshqa turli xil rasmlardan foydalanib Shu asosda suhbat o'tkazish o'quvchilarning so'zlashuv natijasida og'zaki hikoya tuzdirish, she'r, topishmoq va maqollarni yoddan aytirish singari turli o'qitish usullaridan foydalanib darsni tashkil etish mumkin.

O'qish darslarida o'qitish va so'zlab berish jarayonida o'quvchilarning adabiy talaffuz normalariga rioya qilishlari talab qilinadi. Buning natijasida o'qituvchi o'quvchilarni tiniq va ravon so'zlashlari, har bir so'z tinglovchilar e'tiborini o'ziga jalb qilishi kabi nutq malakalarini egallashlariga katta hissa qo'shgan bo'ladi.

O'qish kitobidagi turli janrlarga xos bo'lgan badiiy asarlarni o'qish va ular ustida ishlash orqali o'quvchilarning borliq, voqelik haqidagi tasavvur tushunchalari kengayadi.

Birinchii sinfda o'quvchilar ongli, to'g'ri va bir me'yorda bo'g'inlab o'qish malakalarini egallaydilar. Ayrim nutq tovushlarining talaffuzidagi qiyinchiliklar asta-sekin bartaraf etiladi. O'quvchilar o'qigan matnlarining mazmunini o'qituvchining yordamchi savollari asosida, hamda kichik hajmdagi matn mazmunini unga ishlangan rasmdan foydalanib so'zlab berishga o'rgatib boradilar.

Ikkinchi sinf o'quvchilarida so'zni butunicha o'qish malakalari shakllanadi va ongli, to'g'ri, ifodali o'qishga intilish yaqqol seziladi, o'qish tezligi ortadi. Ayrim matnlarni ovoz chiqarmay o'qiy boshlaydilar. O'qituvchi rahbarligida o'qilgan matndagi asosiy fikrni aniqlaydilar, undagi ayrim voqea-hodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar.

3-sinfda o'quvchilar so'zlarni butunicha o'qish malakalarini to'la egallab, ongli va ifodali o'qishga ko'proq e'tibor qaratadilar. O'qilgan matn mazmunini mulohaza qilish, voqealar yo'nalishini aniqlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. 3-sinf o'quvchilariga o'zaro fikr olishuv jarayonida xalq maqollari va obrazli iboralardan o'rinli foydalanish adabiy talaffuz normalariga rioya qilish o'rgatiladi.

4-sinfda esa o'quvchilar matndagi so'zlarni butunicha, ma'nosiga tushunib, to'g'ri o'qish malakalarini egallaydilar. O'qiganlari mazmunini qayta hikoyalash, matnlarni qismlarga bo'lish va sodda reja tuzish vazifalarini mustaqil bajara oladilar.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinflarda o'qish asosiy dars, o'quv-predmetlaridan biri sifatida o'qitib boriladi. Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qishni o'rgatish ularga tarbiyaviy ta'sir etish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilariga darslar davomida bilim berish bilan bir qatorda ularga iroda, e'tiqod va yaxshi xislatlarni tarkib toptiriladi va ularni qiziqish, qobiliyat va iste'dodlarini o'stirish vazifalarini ham bajariladi. O'qish darslaridagi barcha asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazib boriladi.

Tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama o'stirish uning ongi va hulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiyaning umumiy maqsadi o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklik va jismoniy barkamollikni uyg'un tarkib toptirgan insonlarga xos bo'lgan barcha xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning onginigina emas, balki. Uning xis-tuyg'ularini ham o'stirib borish unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan ta'limiy va axloqiy talablariga muvofiq keladigan hulqiy malaka va ko'nikmalarini tarkib

toptirish lozim. Tarbiya to'xtovsiz va sistemali ravishda olib borilishi zarur bo'lgan ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Tarbiya berish qanchalik erta boshlansa u shuncha samarali bo'ladi. Shu o'rinda ushbu rivoyat juda ham qo'l keladi. Ibn Sino bobomizning oldiga bir chaqaloqni olib keladilar va "Biz bolamizga qachondan tarbiya berishni boshlasak bo'ladi"- deb so'raydilar. Shunda yosh kelin-kuyovdan Ibn Sino chaqaloqni tug'ilganiga qancha bo'ldi - deb so'raydilar. Ular olti oy deb javob beradilar. Ibn Sino chaqaloqning ota-onasiga "Sizlar tarbiya berishga olti oy kechikibsizlar," – deydi.

Bu rivoyatdan ko'rinib turibdiki, tarbiyani hatto bolaning chaqaloqlik davridanoq boshlash, bolani kelajakda ilmi, tarbiyali, mehnatsevarligi va insonlar bilan bo'ladigan muloqoti bilan barcha insonlarning e'tiborini qozonadi. Shuning uchun Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlaganda bu masalaga jiddiy e'tibor beriladi.

Ta'lim olish uchun maktabga kelgan har bir bola to'la tarbiya olib kelmaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'limiy tushunchalarni berishdan oldin ularda tarbiyaviy masalalar yuzasidan ko'plab tushuntirish ishlarini olib borish lozim.

Boshlang'ich sinfda o'qituvchi bolalar ongini, dunyoqarashini qaysi tomonga bursalar, ularning fikrlarini nimalar bilan boyitsa bu narsalar o'quvchilarning xotirasida saqlanib qoladi. Zero, yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir, - deb bejiz aytilmagan. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda o'qish darslari muhim o'rin tutadi. Odob-axloq, hulq-atvor, do'stlik, o'rtoqlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy tuyg'ular asosan o'qish darslarida singdirib boriladi.

Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish jarayoni tarbiyaning jamiyatimiz talab qiladigan maqsad hamda vazifalarni bajaruvchi, mavjud bilimga ega bo'lgan muallimlarning muayyan maqsadga qaratilgan ongli faoliyati natijasida vujudga keladi<sup>1</sup>. Maktabda o'quvchilarning ta'lim jarayonini takomillashuvi ta'lim-tarbiya nazariyasidagi barcha masalalarni maktabda

---

<sup>1</sup> Umarova M. 3-sinfda ona tili darslari. T., "Ijod dunyosi" nashriyoti. 2004 yil. 7-bet.

ta'limning mazmuni, ta'lim printsiplari, o'qitishning shakl va usul, vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari va bir qator vazifalarini mas'uliyat bilan bajarishni o'qituvchilardan talab qiladi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya ishlarini doimiy va uzviy bog'liq holda olib borish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish darslari orqali ta'lim va tarbiyaviy bilimlar berib boriladi. Darslar davomida o'quvchilarga xulq insonning xatti-harakatida, insonlarga bo'lgan munosabatida, jamoat joylarida o'zini tutishda, odobida namoyon bo'ladigan insoniy tuyg'u ekanligi haqida tushunchalar berib borish zarur. Insonning xulqi uning har bir harakatida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Inson hulqi tufayli jamiyat orasida Shuhrat qozonadi, biror mavqega ega bo'ladi yoki badnom bo'lib, yoqimsiz bir shaxsga aylanib qolishi mumkinligini darslikda berilgan ta'lim-tarbiyaga oid asarlar orqali ularni tasavvur va tushunchalarini kengaytirib borish lozim. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan har bir umumlashtiruvchi o'qish darslari ta'limiy, tarbiyaviy xarakterda bo'lishi kerak. Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qish darsini o'tishda dastlab ta'lim va tarbiyaga oid bilimlar berib borilishi, kelajak avlodni barkamol o'sib ulg'ayishiga mustahkam zamin hozirlaydi.


### **1.3. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnik vositalar va ulardan foydalanishning ahamiyati**

Hozirgi axborot texnologiyalarning jadal suratda rivojlanishi ta'lim tizimi va ta'lim jarayoniga zamonaviy yondoshuvni toqozo etaqdi. Ya'ni bugungi kunda ta'lim betrish mazmuni va sifati taraqqiyot natijasida o'zgarib yangilanib borar ekan endilikda ta'lim berish usullari va vositalarini ham o'zgartishimiz va yangilashimiz lozim bo'ladi. Ma'lumki, ta'limda turli usullar va o'qituvchi hikoyasi bilangina ta'lim sifatini yaxshilashga erishib bo'lmaydi. O'quvchilarga tegishli bilimlarni berishda va ularni har tomonlama o'zlashtirishlariga erishishda turli ta'lim vositalaridan foydalanamiz. Ular orasida texnik vosialar o'qituvchini ishini yengillashtiruvchi va ta'limni sifatli amalga oshiriishini ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda, ayniqsa, ta'lim sifatini oshirish maqsadida turli xildagi texnik vositalar ishlab chiqilmoqda yoki ta'lim yo'nalishlarida foydalanish

uchun moslashtirilmoqda. Ushbu texnik vositalariga avvallari magnitafon, kadaskop, televizor, filmaskop kabi bir qator vositalar kirgan bo'lsa, bugungi kunda ular o'rnini videoprojektor, kompyuter, kompyuter ekranlari kabi zamonaviy texnik vositalar egallamoqda. Texnik vositalar deganda faqatgina yuqorida keltirib o'tilgan vositalarnigina tushunmasligimiz lozim. Texnika vositalari qaysi fanda qo'llanilishiga qarab turli tuman bo'lishi mumkin. Masalan, fizika yoki kimyo fanlarida qo'llaniladigan yoki biologiya fanlarida qo'llaniladigan ayrim texnik vositalar o'rnini kompyuter ham bosa olmaydi. Masalan: mikroskopni olaylik. Mikroskop o'ta mayda detallarni kattalashtirib beruvchi qurilma hisoblanadi. U bajaradigan vazifani jonli tarzda kompyuter amalga oshira olmaydi. Lekin ijtimoiy fanlarni o'tishda kompyuter yoki shunga o'xshash texnik vositalar yetarlidir.

Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ta'lim vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim vositalari – o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchi vositalardir. Ta'lim vositalarini foydalanilishi jihatidan quyidagi 3-qismga ajratish mumkin:

- ta'lim beruvchi uchun;
- ta'lim oluvchi uchun;
- dars o'tkazish uchun. Quyidagi chizmada (2-ch izma) ta'lim vositalarining turlari keltirilgan.



Bundan tashqari ta'lim vositalarini xususiyatlariga ko'ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar.

Ta'lim vositalari turlari.

I. Matnli. Ma'lumot olish va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun:

- o'quv dasturlari;
- maxsus adabiyot (darslik);
- ma'ruza matnlari;
- tarqatma materiallar;
- imtihon va nazorat varaqalari.

II. Tasvirli. Umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun.

- fotosuratlar;
- eskiz, chizma, sxemalar;
- tasvirlar, jadvallar
- simvollar;
- plakatlar.

III. Audiovizual.

Jarayonlar va ishlash mehanizmlari to'g'risidja tasvir va ovoz orqali tasavvurni vujudga keltirish uchun.

- videofilmlar;
- kompakt disklar;
- videokassetalar;
- power point materiallari;
- elektron darsliklar.

IV. Yordamchi (jihozli).

Tasvir va matnni yozish va saqlash uchun.

- doskalar (bo'r, doska, oq doska, magnit doskasi);
- "pinbord" doskasi;
- videoproektor, videoproektor ekrani;
- kodoskop;
- kompyuter;

- flipchart;
- audiomagnitofon, videomagnitofon;
- televizor.

#### V. Haqiqiy.

O`rganilayotgan obyektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirish uchun.

Asbob-uskunalar, stanoklar;

- Yarim tayyor va tayyor mahsulotlar;
- Xom-ashyolar.

#### VI. Modelli.

O`rganilayotgan obyektning modeli orqali haqiqiy tasavvur hosil qilish uchun.

- Modellar;
- Plakatlar;
- Trenajyorlar;

Nazariy darslarda ta`lim beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan, misol uchun darsliklar va tarqatma materiallardan hamda komp yuter vositalaridan foydalanadilar.<sup>1</sup>

Amaliy mashg`ulotlarda ular ko`proq tasvirli va real vositalardan, ya`ni eskiz, chizmalar va asbob-uskunalaridan foydalanadilar. Ovoz va tovushli (video), shuningdek, tasvirli tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar jarayonlar va vazifalar to`g`risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi. Yordamchi vositalar buning aksi o`laroq tasvir va matnlarni yozib olish imkonini beradi. Ular doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoproektor kabilardir.

Ish sohasiga tegishli real narsalar, ya`ni mahsulotlar, asboblari va boshqalar dars paytida didaktik funktsiyaga ega bo`lsa, o`quv vositasi sifatida qo`llanilishi mumkin. Ta`lim vositalaridan foydalanishda ularni muayyan maqsad, mo`ljallangan guruh, mahsus soha va metodlarga mos holda tanlash muhim o`rin

---

<sup>1</sup>Sh. Yuldashev. Mehnat ta`limi darslaridano`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirishda kompyuter vositalaridan foydalanish magistrlik dissertatsiyasi. T.,2009. ziyonet.uz

tutadi. Bundan tashqari ta'lim beruvchi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Komp yuter vositalaridan foydalanayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim.

Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash. Axborot obyektlar, hodisalar, jarayonlar haqidagi xabarlar to'plamidir. Olingan axborotlar belgili, matnli va grafikli ko'rinishda ifodalanadi. Belgili ko'rinishdagi axborot asosan harflar, raqamlar, belgilar ko'rinishidan iborat bo'ladi. Undan turli hodisalar haqida murakkab bo'lmagan signallarni uzatish uchun foydalaniladi. Masalan, ko'chadagi svetoforming yashil chirog'i transport va odamlarning harakatlanishini bildirsa, qizil chiroq esa, aksincha, harakatlanishni taqiqlaydi. Sariq chiroq esa ko'cha harakatini almashinishi haqida xabar beradi. Matnli ko'rinish axborotni tasvirlashning deyarli murakkab ko'rinishidir. Bunda ham yuqorida keltirilganidek, harflar, raqamlar, matematik belgilardan foydalaniladi. Lekin, axborotni tasvirlashda nafaqat mazkur belgilardan foydalanamiz, balki ularni tutgan o'rni ham muhim ahamiyatga egadir. Masalan, "nok" va "kon" so'zlari bir xil harflardan iborat bo'lsada, lekin turli xil axborotni bildiradi. Matnli belgilardan amalda juda keng foydalaniladi. Jahonda juda ko'plab kitoblar, oynomalar, kundalik ro'znomalar matnli ko'rinishda chop etilmoqda. Axborotni tasvirlashning juda katta va murakkab ko'rinishi grafikali ko'rinish hisoblanadi. Bunga turli xil shakllarning tabiiy ko'rinishi, fotografiya, chizmalar, sxemalar va rasmlar kiradi. Bir-birimiz bilan o'zaro almashinayotgan axborotlar nutq yoki yozma shaklda bo'lib, belgili axborotlar deb ataladi. Ular yozma matnlar, harflar, tinish belgilar, raqamlardan iborat bo'ladi. Og'zaki nutq ham belgilardan iborat, lekin bu belgilar yozma emas balki ovozlidir. Tilshunoslar buni fonemlar deb ataydilar. Fonemlardan so'zlar yig'iladi, so'zlardan esa iboralar hosil bo'ladi. Yozma belgilar va ovozlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud. Dastlab ovoz, so'ngra yozuv paydo bo'lgan. Inson nutqini qog'ozga tushirishning zarurati tufayli, yozuvga ehtiyoj paydo bo'lgan. Alohida harflar yoki harflar birikmasi nutq ovozini, tinish belgilar esa pauzalarni, intonatsiyalarni ifodalaydi.



XX asrning 70-yillarida mikroprotsessor texnologiyasini kashf etilishi va shaxsiy komp yuterlarning hayotimizga keng kirib kelishi, yangi axborot inqilobini vujudga keltirdi. Bu inqilob yangi soha hisoblanmish, ya'ni bilimlarni ishlab chiqish uchun yangi texnologiyalar, uslublar, komp yuter vositalarini ishlab chiqarish bilan bog'liq axborot sanoatini rivojlanishini ilgari surmoqda. Axborot texnologiyalari, xususan telekommunikatsiyaning barcha turlari axborot sanoatiningeng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Axborot texnologiyasi – obyekt, jarayon va hodisaning holati haqidagi yangi sifat axboroti olish uchun ma'lumotlar yig'ish, ishlov berish va uzatishning vosita va uslablarning jamlanmasidan foydalanadigan jarayondir.

Telekommunikatsiya – komp yuter tarmoqlari va zamonaviy texnik aloqa vositalari negizida ma'lumotlarni masofadan uzatishdir. Zamonaviy axborot texnologiyasi kom yuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Hozirda kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarining gurrakib rivojlanishi turli xil axborotdan umumli foydalanishga qaratilgan axborot jamiyatining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu jamiyatda ko'pchilik ishlovchilar axborot, uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, ishlov berish va amalga oshirish bilan band bo'ladilar. Axborot jamiyatida komp yuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotga ishlov berishni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi. Bu jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o'zgaradi. Jami faoliyat mahsulotlarni ishlab chiqarish va iste'mol etishga yo'naltirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan axborot jamiyatida tafakkur, bilimlar ishlab chiqariladi va iste'mol etiladiki, bu holatlar aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Har bir insondan ijodiyotga qobiliyat talab etiladiki, natijada bilimlarga bo'lgan ehtiyoj yanada oshadi. Ushbu jamiyatning moddiy va texnologik negizini komp yuter texnikasi va komp yuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida eng muhim tushunchalardan biri axborot zahiralari hisoblanadi. Axborot zahiralari – alohida

hujjatlar, axborot tizimlari, ya'ni kutubxona, arxiv, fond, ma'lumotlar banklari, shuningdek boshqa axborot tizimlaridagi hujjatlar to'plamidir. Hozirda multimedia" degan so'z kundalik faoliyatimizda juda ko'p ishlatilmoqda. Ta'limda multimedia texnologiyasini tadbqiq etish uchun dastlab, "Multimedia nima o'zi?" degan savolga javob beraylik. Multimedia – tasvirli ma'lumotlar bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi. "Multimedia" so'zi lotincha "media" so'zidan olingan bo'lib, "ma'lumot tashuvchi vosita" degan ma'noni anglatadi. Multimediaali komp yuterlar so'z, musiqa va boshqa ovozli ma'lumotlar, video ma'lumotlarni qabul qiladi va ular ustida ishlaydi. Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turli xil izohlamogdalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib multimeddiaga shunday ta'rif berish mumkin: multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan xoldagi ko'rinishidir. Multimedia hozirda juda tez gurkanab rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- an'anaviy axborot turlari, ya'ni matn, jadval, turli xil bezaklar va original axborot turlari, ya'ni nutq, musiqa, videofil mlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya (ob'ektlarning fazodagi harakati) ko'rinishidagi axborot turlarini bir dasturiy mahsulotda mujassamlashtirilganligi;

- video va audio axborotlarini komp yuterda qayta ishlash va aks ettirish uning markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ va video-xotira, katta sig'imli tashqi xotira, hajm va komp yuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini tahminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

- "inson-komp yuter" interaktiv muloqotining yangi darajasini ta'minlanishi. Bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Ta'lim jarayonida multimedia vositalari yordamida darslarning samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Rivojlangan

xorijiy davlatlarda o'qitishning bu usulini ta'lim sohasining barcha yo'nalishlari bo'yicha tadbiq qilinmoqda. Hozirgi amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, mul timedia vositalari yordamida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar samarali bo'lmoqda. Mazkur vosita yordamida o'qitishda an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan o'rtacha 30% gacha vaqtni tejash mumkin hamda olingan bilimlar o'quvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. Ma'lumki, eshitgan materialning to'rtidan bir qismi xotirada qoladigan bo'lsa, o'quvchilarga beriladigan materialning video (ko'rish) orqali amalga oshirsak, axborotni xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyatchi 25-30% gacha ortadi. Shuningdek, mazkur o'quv materiallari audio, video, grafika ko'rinishida mujassamlashtirilgan holatda o'quvchilarga berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ga ortishi kuzatilmoqda. Ta'lim sohasida mul timedia vositalari yordamida o'quvchilarga bilim berish quyidagi afzalliklarga ega: <sup>1</sup>

- ta'lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;

- ma'lumotlarni vizuallashtirish imkoniyati;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishuvi;

- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishuvi. Lekin, mazkur vositalarni ta'lim jarayoniga qo'llashning ayrim muammolari ham mavjud bo'lib, u quyidagilardan iborat:

- ta'lim uchun zarur bo'lgan o'quv materiallarini hamda boshqa zaruriy ko'rsatmalarni qo'llanma shaklida komp yuter dasturlari ko'rinishida ishlab chiqish;

- ishlab chiqilgan komp yuter dasturlari uchun mul timedia elementlarini qo'llash.

O'quv materiallarini yaratish bo'yicha hozirda Respublikamizda ma'lum bir ishlar qilinmoqda. Bunga yetakchi mutaxassislar jalb qilingan bo'lib, o'quv

---

<sup>1</sup>Sh. Yuldashev. Mehnat ta'limi darslaridano'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda kompyuter vositalaridan foydalanish magistrlik dissertatsiyasi. T.,2009. ziyonet.uz

materiallari ta'lim yo'nilishlari bo'yicha yaratilmoqda. Komp yuter yordamida o'quv va didaktik materiallar deyarli professional darajada ishlab chiqilishi mumkin. Matnni qo'lyozma shaklida tayyorlab olish kerak. Matn tayyor bo'lgach, uni matni qayta ishlovchi dastur, misol uchun Word dasturi orqali komp yuterga kiritish mumkin. Grafiklarni kiritish uchun Power Point taqdimot dasturidan foydalaniladi. Ikkala dastur birga matn va grafik kombinatsiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Microsoft Power Point – universal, imkoniyatlari keng bo'lgan, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yarati sh imkoniyatini beradi.

Slayd – ma'lum bir o'lchovga ega bo'lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda bir maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi. Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor taqdimotni komp yuter ekranida, videoproektor yordamida katta ekranda namoyish qilish mumkin. Taqdimotni tashkil qilish – slaydlar ketma-ketligini loyihalash va jihozlash demakdir.

Taqdimot axborot texnologiyasining samaradorligi ko'p jihatdan taqdim etuvchi shaxsga, uning umumiy madaniyati, nutq madaniyati va hokazolarga bog'liq ekanligini ham unutmaslik lozim. Power Point dasturi Microsoft firmasining Windows qobig'i ostida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur prezentatsiya (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalardan biridir. Bu dastur orqali barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish va ba'zi joylarda esa ma'lumotlar bazasi sifatida ham qo'llash mumkin. Ayrim hollarda, bu dasturdan mul timedia vositalarini boshqarish va ularni qo'llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalarini ham bajarish mumkin. Power Point dasturida taqdimot materiallarini tayyolash quyidagi bosqichlardan iborat.

- g'oyaning shakllanishi;
- ma'lumot yig'ish;
- reja tuzish;
- matn tanlash;

- dizayn tanlash;
- animatsiya tanlash.

Taqdimot materiallarini tayyorlash bosqichlari. Yuqoridagi chizmadan ko`rinib turibdiki, taqdimot materiallarini tayyorlashning birinchi bosqichi tayyorlanadigan material bo'yicha g'oyaning shakllanishidir. Ya'ni material kimlar uchun mo'ljallangan va qanday ko'rinishda bo'lishi to'g'risida yaratuvchida bir necha g'oyalar shakllanadi. Ikkinchi bosqichda materiallar bo'yicha kerakli ma'lumot yig'iladi. Ushbu ma'lumotlar mavzuiga taalluqli va aniq maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim. Aks holda keraksiz va foydasiz ma'lumotlar yig'ilishiga hamda vaqtning behuda sarflanishiga olib keladi. Uchinchi bosqich – reja tuzish bosqichi hisoblanib, unda materillar saralanib olinadi va mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish rejalashtiriladi. To'rtinchi bosqichda saralab olingan materiallar ichidan slaydga beriladigan matn tanlab olinadi. Slaydlardagi matnlar juda ko'p bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Matnlar qisqartirilgan ko'rinishda tanlab olinadi. Bir slayddagi matnlar 7-8 qatordan oshmasligi lozim. Ta'lim beruvchi dars jarayonida qisqartirilgan matnni og'zaki to'ldirilgan holda tushuntirib beradi. Dizayn tanlash bosqichida matnning shrifti, matnga qo'shimcha rasm, chizma, grafika va ranglar tanlab olinadi. Shundan so'ng,

- g'oyaning shakllanishi
- matn tanlash
- dizayn tanlash
- reja tuzish
- ma'lumot yig'ish
- animatsiya tanlash ya'ni oltinchi bosqichda barcha tanlab olingan materillarga animatsiya qo'yiladi.

Animatsiyada matn va tasvirlarni harakatlantirish, unga ovoz berish imkoniyatlari mavjud. Animatsiyadan foydalanish materiallarni yanada jonliroq va qiziqarli bo'lishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim oluvchiga berilgan materiallarning uzoq vaqt xotirasida saqlanib qolishiga va ularning motivatsiyasining oshishiga yordam beradi.

## **II bob. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ona haqidagi asarlarni o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyadan foydalanish**

### **2.1. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish orqali o'quvchilarning ona haqidagi tushunchalarini o'stirish**

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo'shiqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o'zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu, kurashlarini ifodalagan. Xalq og'zaki ijodi o'zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g'oyalar bilan yo'g'rilganligi bilan yozma adabiyotdan ajralib turadi.

Bolalar folklori ko'pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi, ba'zi hollarda bolalar o'z o'yinchoqlari asosida o'zlari ham alla, qo'shiq va ovunmachoqlar to'qiydilar. Bularning hammasi bir bo'lib faqat yaxshi tarbiyani targ'ib qiladi. Bolalar xalq og'zaki ijodining pedagogika bilan bog'lanishi alladan boshlanadi. Alla ona timsolida gavdalanadi. Allaning bola tarbiyasida juda katta ahamiyati bor.

#### **ALLA - QO'SHIQ**

Alladir hayotda sevimli qo'shiq,  
Onalar kuylaydi yurakdan jo'shib.  
Bolasin umriga umrlar tilar,  
Allaga dildagi niyatin qo'shib.  
Bu qanday sinoat, men bilolmadim,  
Ta'rifiga so'zlar topa olmadim  
Allalar eshitib, o'sib-ulg'aydim,  
Dard cheksam, allani tinglab sog'aydim!

Bu hammaning gapi, hammaning dil so'zi, hammaning allaga, onaga iqrornomasi, ta'zimi. Yoshi ulug'mi, kichikmi alla eshitgan, alla og'ushida, ta'sirida o'sgan, ulg'aygan, esini tanigan, kamol topgan, inson bo'lgan.

Alla xalq og'zaki ijodining eng oliy namunasi hisoblanadi. Allada onaning o'yi, xayoli, ezgu niyati, porloq kelajak uchun intilishi, kurashi o'z ifodasini topgan bo'ladi. Alla millat tanlamaydi, uning matnini tushunmasa-da, ohangi-kuyini eshitgan har bir inson bosh chayqaydi, beshik kabi ohista tebranadi, orom oladi,

o`zini-o`zi taniydi, xayoli bolaligiga ketadi, hayotda yo`l qo`ygan xato va kamchiliklarini tuzatib olishga intiladi.

Alla qadimiy xalq qo`shig`i. Alla va beshik xamohang yuradi. Bu haqda buyuk alloma Abu Ali ibn Sino, - Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo`llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo`lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo`lgan iste`dodi hosil qilinadi, - deb alla va beshikning norasida kamolotida muhim ahamiyat kasb etishini ta`kidlab o`tgan. Buni dildan his qilgan ona chaqalog`ini o`zi suyugan, e`zozlagan har narsadan yuqori qo`yib alla aytadi:

Sen bog`imning bahori,  
Sen umrimning nahori,  
Sen qalbimning ohori,  
Onajoni shunqori, alla-yo, alla.

Odatda, onaning orzu-armonlari bir talay bo`ladi. Dilidagi ezgu niyatlarini allaga qo`shib jo`shib kuylaydi. Bola birinchi navbatda sog`lom fikrli, el-yurt o`g`loni bo`lib kamol topishi kerak. Mana bu allada shu g`oya yaqqol ko`zga tashlanib turadi:

Onasining erkasi,  
Uxlab qolsin, alla-yo.  
Bo`lsin inson sarasi,  
Obro` olsin, alla-yo, alla.

Chaqaloq olamga kelishi bilan dastlab ota-onani taniydi. So`ng oila a`zolari, jonivorlar, parranda-yu, darrandalar bilan oshno bo`ladi. Tabiat insonga xizmat qiladi. Inson uni ehtiyot qilishi, parvarishlashi, o`stirishi, ko`paytirishi lozim. Shu ma`noda inson ruhiga o`z kuyi, qo`shig`i bilan quvonch bag`ishlaydigan qush-bulbulni ham ehtiyot qilishi zarurligi bir qator allalarning asosini tashkil etadi:

Bulbul sayrar yozina, alla-yo, alla,  
Qulluq qush ovozina, alla-yo, alla.  
Bermang bulbula ozor, alla-yo, alla,

Bulbul beozor qushdir, alla-yo, alla.<sup>1</sup>

Qadimda och-yupun hayot kechirgan mehnatkash xalq o'z farzandini kelajakda mard-pahlavon, botir bo'lib kamol topib yurt himoyachisiga aylanishiga umid bog'lagan. Shu bois ham alla-qo'shiqlarida farzandlarini yo'lbars yurakli, qoplon bilakli bo'lib kamol topishlari uchun allalar to'qib farzandi ongiga, shuuriga quyib tarbiya qilganlar:

*Yo'lbarslarday yuraklim, alla,*

*Qoplonlarday bilaklim, alla.*

*Yaxshi-yomon kunimda, alla,*

*Menga juda keraklim alla.*

Ona allasida bolasining ertasi, kelajagi porloq ekanligiga qattiq ishonch ko'pgina allalarda o'z ifodasini topganligini ko'ramiz. Quyidagi alla ana shulardan biri sifatida kitobxonda katta taassurot qoldiradi:

Alla, bolam-ey,

Guli lolam-ey.

Tezroq katta bo'l,

Mushtoq olam-ey.

Alla, alla-ey,

Yorqin kelajak,

Seni kutajak.

Toza qalbingga

Sevinch to'lajak.

Alla, alla-ey.

Alla, erkatoy

Og'zing to'la moy,

Baxting munavvar,

Sharofatga boy,

Alla, alla-ey.

Alla erkatoy,

Mushtoq senga toy,

Uxlasang, qalbing

Ochadi chiroy,

Alla, alla-ey.

Ovuntirish - allani hamma aytadi – onalar, buvilar, bobolar aytishadi. Alla asta-sekin ommaviy qo'shiqqa aylanadi. Qo'shiqlar uzoq yillar davom etadi. Aytaylik, chaqaloqni birinchi bor beshikka solayotganda aytiladigan qo'shiqlar. Aslida beshik bir yog'och-taxta. Paxta, par va matolar bilan burkanganda u yumshoq, har qanday murg'akka huzurbaxsh joy bo'lishi har bir beshik qo'shig'ida chiroyli ifodaga ega:

---

<sup>1</sup> No'monov T. va boshqalar. Maqol va hikmatlar. "Ona tilimiz duru javohiridir". – Namangan, 2013.



Beshigi taxta,  
Orqasi paxta.  
Egasi keldi,  
Kuchugi qoch.  
Ichida yotganni  
Bahrini och.

Chaqaloq beshikda maza qilib uxlab, orom olib bo`lgach, norasidani beshikdan olayotganda aytiladigan qo`shiq ham nihoyatda muxtasar aytilgan. Alloh beshikdagi chaqaloqqa xotirjamlikni ato etganligini, shu sababli hech qanday sharpa-dushman uning uyqusini buza olmasligini quyidagi to`rtlikdan bilib olish qiyin emas:

Taqa-tuqi gavora bo`lsin,  
Dushmani ovora bo`lsin.  
Uyqusi beshikda qolsin,  
Dushmani eshikda qolsin.

Xalqda chaqaloq uchun xavfli kunlar ham borligi alohida qo`shiqlarda ta`kidlanadi. To`qqiz kunlik bo`ldimi, tamom, u yashab qolishi, endilikda xavf-xatardan butunlay xoli bo`lib olganligi, do`st ustiga do`st orttirib shu xonadonning haqiqiy a`zosiga aylanib qolganligi mana bu qo`shiqda to`la-to`kis ifoda etilgan:

To`qqizdan o`tdi bu bacha,  
Endilikda o`lmas bu bacha.  
Bog`larning g`o`rasi bu bacha,  
Bolalar jo`rasi bu bacha.  
Shu uyning to`risi bu bacha,  
Shamsu qamaru sitora  
Hamrohi shu bacha.

Bu kabi aytishuv qo`shiqlari bolalarni mehnatkash, odob-axloqli, o`qimishli bo`lib kamol topishga da`vat etaveradi. Bunday qo`shiqlar qanotida o`sgan har bir bola sog`lom fikrli, el sevar bo`lishiga hech shubha yo`q.

Ona haqida berilgan barcha allalar bola tarbiyasida muhim hisoblanib, bolani vatanga sodiq bo`lib ulg`yishida, ota-onaga mehribon bo`lishida, katta

bo'lganida ota-onasini xizmatida bo'lishida, vatan oldidagi burchini ado etishida katta ahamiyatga egadir.

### MAQOL

Bolalar xalq og'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinda turadi. Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar maqol, deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aqlu farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, olijanob, mehnatkash kishining biror voqea-hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa biror kishi uchun (ko'proq bolalar uchun) yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratilib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda quyidagi maqol muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi:

*Ona yurtiing omon bo'lsa,*

*Rangi ro'ying somon bo'lmas.*

Maqollar chuqur ma'noni ifoda eta bilishi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janr turlaridan farq qiladi. Ularda mehnatkash xalqning orzu-umidlari, o'zaro munosabatlari, vatanparvarlik, insonparvarlik hislatlari, o'y-fikrlari o'ziga xos shaklda aks etgan bo'ladi. Shu sababdan ular bolalarni to'g'ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lo'nda bayon etishga o'rgatadi, ularning badiiy didini oshiradi, tarixiy hodisalarning mohiyatini yaxshiroq, chuqurroq payqab olishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqollar ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so'z boyligini ham oshirishga ko'maklashuvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi. Kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, deyarli barcha maqollarda birinchi navbatda bola tarbiyasi - odob yotar ekan. Ona haqidagi maqollar ham bola tarbiyasida muhim.

“Avval salom, ba'daz kalom” maqolida salom tarbiya o'chog'i ekanligi igodalangan. Tarbiya avvalo oilada shakllanadi. Salom tarbiya maskanidir. Bolani salomga o'rgatish onaning vazifasidir.

“Bola aziz – odobi undan aziz”- maqolida esa bolaning ona uchun azizligi, odobli bola doimo aziz ekanligi ifodalangan.

“Onasini ko’rib, qizini ol”- maqolida ona timsoli qizida namoyon bo’ladi. Onani barcha harakatlarini o’rganib qiz voyaga yetadi. Qizga sovchi qo’yishganda shu maqol gavdalanadi.

“Otang bolasi bo’lma, odam bolasi bo’l”- maqolida bolaning otasining bolasi ekanligi, lekin, odam bolasi bo’lish uchun mehnat, mashaqqat lozimligi uqtirilgan.

”Ona kulsa, xona to’lar,

Ota kulsa, g’aming ketar”- maqolida onaning beg’ubor qiyofasi, ona bor uyda ko’ngil to’q ekanligi gavdalanadi.

“ Ona yerning tuprog’i ona sutidek aziz” – maqolida ona tuprog’ini ona sitidek aziz ekanligi namoyon etilgan.

“Ota rozi- xudo rozi”- maqolida otani ranjitmaslik kerakligi uqtiriladi.

“Onaning ko’ngli bolada,

Bolaning ko’ngli dalada”- maqolida onaning ko’ngli doim bolasida ekanligi, bolasining esa ko’ngli doim dalada, ya’ni onasini o’ylamasligi ko’rsatilgan.

“Ona bilan bola- gul bilan lola”- maqolida ona bilan bolani gul bilan lolaga qiyoslangan.

Bunday iboratomuz maqollar ro’yxatini yana cho’zish mumkin. Ularning harakat, intilish, kurashlarida yuqoridagi maqollarning o’rni, albatta katta bo’ladi

Ona haqidagi maqollarni o’rganich orqali bola to’g’ri so’z, odobli, aqlli bo’lib kamol topadi. Ana shunday bola bor ovoz bilan:

- Ong ko’zimiz ochamiz,

Tong ko’zimiz ochamiz.

Boqamiz keng olamga,

Barchaga teng olamga! – deydigan bo’ladi..

Bola kamolotida birinchi navbatda salom-alik turadi. Salom-alikni o’rgangan, uni kanda qilmaydigan har bir bolaning ishi yurishadi, omadi chopaveradi. Axir xalq, - yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi, degan gapni bekorga aytmagan. Har

qanday holatda ham salom og'irni yengil qiladi, oldindagi to'siq va g'oyalarni zabt etishda madodkor bo'ladi.

Har bir bola ilmi, uquvli, kasb-hunarli bo'lib kamol topishi uchun onaning o'rni begiyos. Agar inson bunday xususiyatlarga ega bo'lsa, birinchi navbatda o'zi hayotda qiynalmay, o'zgalarga muhtoj bo'lmay umr kechiradi. Ikkinchidan, bunday zotlar o'z oilasini ham qiynalmay boqadi, ona-Vataniga ko'mak beradi. Xalq bu haqda bekorga mana bunday maqollar to'qimagan:

Bilim – kuchda,

Kuch – bilimda.

Go'zallik – ilmu ma'rifatda.

Davlat tugar, bilim tugamas.

Ilm-aql bulog'i,

Aql – yashash chirog'i.

Ilmlining so'zi – o'q,

Ilmsizning so'zi – yo'q.

Oltin olma, bilim ol,

Bilim olsang, bilib ol.

O'unar oshatar, mehnat yashnatar.

O'unari borning oltin bilagi bor.

Bolalar xalq og'zaki ijodining, ayniqsa, ona haqidagi maqollar janrida kichikntoylarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga mo'ljallangan asarlar alohida o'rinda turadi.

Bu mavzudagi maqollarning katta-ko'pchiligi bola hali maktabga chiqmasidan oldinoq ularga tanishtiriladi. Xalq maqollarida yaxshilik, halollik, to'g'rilik hamda rostgo'ylik ulug'lanib, yomonlik, yolg'onchilik va qalloblik qoralanadi. Yuqoridagi sharhlardan ko'rinadiki, ona haqidagi maqollarni tinglashda xalq maqolini qo'llab, etti o'lchab bir kesib yashagan inson hech qachon kam bo'lmaydi. Shu tariqa maqol janri rivojlanib, bolalarning ong-tushunchalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

## TOPISHMOQ

Qadim-qadim zamonlarda ham o'zbek xalqi o'z bolalarini kuchli, epchil, aqlli qilib tarbiyalashga katta ahamiyat bergan. Ona haqidagi topishmoq, jumboq singari aqliy o'yinlar ana shu savolga javob izlash jarayonida xalq tomonidan yaratilgan. Topishmoqlarning ham ijodkori xalqdir.

Yuzaki qaraganda kattalar bilan bolalar, bolalar bilan kattalar o'rtasida topishmoqlar aytish, shunchaki bir ermakday tuyuladi, zerikmaslik uchun, vaqtni tez o'tkazishga qaratilganday ko'rinadi. Aslida esa topishmoqlar fikr qayrovidir, ular orqali bola obrazli fikrlaydigan va obrazli so'zlaydigan bo'ladi. Ona haqidagi topishmoqlar bolada so'z boyligini orta borishiga va nutqining o'sishiga yordam qiladi. Bolaga topishmoq topishni o'rgatish bilan unda fikrlashning asta-sekin yuksalishiga sabab bo'ladi. Demak, xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va eng faol janrlaridan biri topishmoqdir.

Xalq og'zaki ijodining eng boy janrlaridan biri bo'lgan topishmoq ikki qismdan iborat bo'lib, topishmoqning asosiy qismi bo'lgan javob obrazlar orqali jumboqlangan ob'ekt-narsaning otini aytib berishdan iboratdir. Uning savol-jumboq qismi tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni, umuman, ob'ektni badiiy tus berilgan holda obrazlashtirish, taqqoslash, o'xshatish orqali jumboqlashdan tashkil topgan. Topishmoqning jumboq qismi bilan javobi birlikda bir butunlikni tashkil etadi:

Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi. (Quyosh, oy va yulduzlar)

Zero, topishmoq hozirgi vaqtda ham o'zining g'oyaviy, tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgan emas. O'ziri kunda ham har xil narsa va hodisalar haqida yangidan-yangi topishmoqlar yaratilmoqda. Topishmoqlar ayniqsa, kichkintoylarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga, ularni muayyan bir fikrni badiiy tusda ifodalashga va ziyraklikka, topqirlikka o'rgatadi. Ayniqsa ota-ona haqidagi topishmoq bolani ota-onasiga mehribon qilib tarbiyalaydi:

Bog'imdagi qosh chinor. (ota-ona)

Xalq topishmoqlari orasida inson a'zolariga bag'ishlangan ko'plab topishmoqlar kichkintoylar quvonchiga-quvonch qo'shib kelmoqda. Shu narsa ham jozibaliki, chevar xalq o'zi to'qigan asarida inson a'zolariga alohida urg'u beradi. Har bir a'zoning inson hayotida juda katta ahamiyat kasb etishini pardo-andoz

bilan tinglovchi ongiga yetkazadi. Ana shunday a'zoldan biri – tish topishmoqda yuksak darajada ta'rifga ega:

*Biz-biz edik, biz edik,  
O'ttiz ikki qiz edik.  
Ikki safga tizildik,  
Birin-ketin uzildik.  
Shov tegirmonning toshi,  
Oltin egarning boshi.  
Shuni topgan bolaning  
Yuz yigirma ikki yoshi.  
Bir uychada turadi,  
O'ttiz ikki pahlavon.  
Birdek kiygan libosi,  
Birdek ahil-jonajon.*

Topishmoq janri yozma adabiyotning rivojiga ham barkali hissa qo'shgan. Chunonchi, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, Qudrat Hikmat, Anvar Obidjon va boshqa qalamkashlar tomonidan yaratilgan nazm va nasrda o'z ifodasini topshganligini ko'ramiz.

Masalan, G'afur G'ulom "O'ylashni o'rganamiz", "Buni toping, qizlarim" asarlarida topishmoq janrini yuksak qadrlaganligini ko'ramiz. Chunonchi, "Buni toping, qizlarim" topishmoq asari kichkintoylarning ong, tushuncha, fikrlarini rivojlantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi:

|                                   |                                    |
|-----------------------------------|------------------------------------|
| <i>- To'ni silliq, tuki yo'q.</i> | <i>- Malla tukli, sap-sariq,</i>   |
| <i>Hammasi to'q, po'ki yo'q,</i>  | <i>Murabbosi mazalik.</i>          |
| <i>Ichi qizil, ko'ki yo'q,</i>    | <i>Palovga bossa bo'lar,</i>       |
| <i>Uni cho'qolmas chumchuq,</i>   | <i>Podvalga ossa bo'lar.</i>       |
| <i>Bu nima, qizim Qunduz?</i>     | <i>Tishlab ko'rib, ayt, Mehri,</i> |
| <i>- Bumi, dadavoy? (Tarvuz.)</i> | <i>- Bumi dadavoy? (Behi.)</i>     |

Topishmoq janri bugungi o'qish darslarini tushunarli, ta'sirli, qiziqarli qilib o'tishda, bolalarning o'y-fikrlarini jamlashda soha muallimlariga ham juda qo'l kelmoqda.

Yuqoridagi sharhlardan ko'rinadiki, bola topishmoqsiz o'smaydi. U kattalar, bolalar davrasida ko'plab fikrlar qayrovi – jumboq tinglaydi, o'zi ham qatnashadi va echadi. Bu esa uning kelajakda o'ziga pishiq-puxta, aqlli, zakovatli inson bo'lib kamol topishi uchun mustahkam zamin bo'ladi.

### **TEZ AYTISH**

Xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va muhim janrlaridan biri tez aytish. Tez aytish bolaning tilini ravon, burro qilishdan tashqari, aqliga – aql qo'shadi, ongini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi, ota-onasiga, el-yurtiga, o'zini qurshab olgan olamga nisbatan mehr-muhabbatini oshiradi. Boshqacha ibora bilan aytganda, yangi avlod har gal o'zidan avvalgi avlodlar kashf etgan narsalarni hisobga oladi, o'zlashtiradi. Bu yo'l, shubhasiz, boshqalariga qaraganda oqilona, foydali, porloq kelajak yo'lidir.

Tez aytishni qayta-qayta mashq qildirish, berilgan matnni osongina diliga, tiliga jo qilib olish har tomonlama foyda so'z o'yini bilan ijro etiladigan har bir tez aytish zahirida bir nechta vazifalar yotgan bo'ladi. SHulardan birinchisi qayta-qayta mashq qilish, tinimsiz takrorlash natijasida bolaning nutqi chiqadi, tili ravon bo'ladi. Bularning hammasi yig'ilib bola tarbiyasiga bog'lanadi. Bola olamga kelishi bilanoq uni kelajakda komil inson bo'lib o'sishi uchun mana shunday chora-tadbirlarni qo'llashga to'g'ri keladi. Aks holda bu ish kechiktirilsa, ko'zlangan natija chiqmay qolishi mumkin.

Novvoy non yopar,

Nonni novvot deb sotar, -

deyilgan tez aytish shu asosda yuzaga kelgan.

Insonning o'zi, uyi – oilasi, ona-Vatani tinch bo'lsa, bu bitmas-tuganmas shodlik, baxt. Mana shu baxt uchun kurashish g'oyasini kichkintoy qalbiga singdirib borishda ona haqidagi tez aytishlarni o'rganish foydadan holi bo'lmaydi.

Mehnatkash xalq o'z ijodida hech narsaga befarq qaramagan. Hatto, insonning kiyim-kechagi, boringki, dastro'molu sochiqlar to'g'risida ham munosabat bildirgan. Qarang, sodiq sochini sochiqqa artdi. Bu tez aytishga asos bo'lgan narsa birinchi navbatda, inson yuvinib-taranib, pokiza bo'lib yurishi lozim. Ikkinchidan, o'zi tutadigan buyumi ham risoladagidek bo'lmog'i kerakligi tez aytishda ko'zga tashlanib turibdi.

Odamzod ota-ona, buvi-bobolar yordami, ularning aytib beradigan alla-qo'shiq, maqol, masal, topishmoq, tez ayrish, ertaklari bilan kamol topadi, o'sadi, ulg'ayadi. Odob, o'qish, kasb-hunarni egallash ham shu zaylda kamolot cho'qqisiga ko'tariladi. Inson qanchalik og'ir-bosiq bo'lsa, u hamisha ezgulik sari intilsa, kurashsa; kam gapirib ko'p o'qisa, o'rgansa, o'z sohasining etuk kishisi bo'lsa shu kishi baxtiyordir. Ana o'shanda xalq to'qigan mana bu tez aytish ham zoye ketmagan bo'ladi:

*Ko'p so'zning ozi yaxshi,*

*Oz so'zning o'zi yaxshi.*

O'zbekistonning er osti va usti boyliklari juda ko'p. Biz bu bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi. Marmar toshimizning sifati, chidamliligi, ko'rkamligi jahonga mashhur. Tez aytishlarni bolaga o'rgatishda onaning o'рни beqiyos, Shu mavzuga bag'ishlangan tez aytish bolalarda ona-Vatanimiz boyligiga faxr hislarini yanada jo'sh urdirib yuboradi:

*Yuzg'onning marmari jahonga mashhur,*

*Bizning g'ozg'onchilar shuning uchun mag'rur.*

## **ERTAKLAR**

Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning o'ziga xos hayoti chetlab o'tilmagan. Hatto, turli yoshdagi bolalar uchun juda ko'p maxsus ertaklar yaratilgan.

Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan chambarchas bog'lanishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib ketishidadir. Ertaklar insonning



ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. Xalq ertaklarida uni yaratuvchilarning dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi. Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxonga tez etib boradi. Ular orqali ham insonning ijtimoiy axloq normalari shakllanadi.

Xalq ertaklarida el-yurtni ko'z qorachig'iday avaylab saqlovchi ajoyib qahramonlar ulug'lanadi; ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi; uzoq masofalar yaqin qilinadi; kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma'qul illatlar tanqid ostiga olinadi; mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g'oyalari ulug'lanadi.

Xalq ertaklari o'z xususiyatlariga ko'ra bir necha turga bo'linadi: hayotiy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli – afsonaviy ertaklar, ijtimoiy-maishiy ertaklar.

Bu yoshdagi bolalarga ko'proq ig'vo, g'iybat, munofiqlikdan yiroq bo'lgan ertaklar yoqadi. Negaki, chin, mukammal tarbiyali bola boshqalarga hech bir ozor etkazmasligini, takabburlik qilmasligini, hech kimga haqorat ko'zi bilan qaramasligini, rostgo'y bo'lishini kitobxonlar avvalgi davr bolalar kitobxonligida tavsiya etilgan ertaklar orqali bilib olishgan. Demak, o'zidan kattalarga hurmatli, kichiklarga shafqatli va marhamatli, kular yuzli, shirin so'zli va xushmuomala bo'ladi. Va'dasiga vafo qiladi, omonatga xiyonat qilmaydi. Ig'vo, g'iybat munofiqlikdan o'zini saqlaydi. Ota-onasining hurmatini bajo keltiradi. Ularni o'zidan rozi qilishga sa'y-harakat qiladi. Qarindosh-urug'laridan aloqasini uzmaydi, ularga mehr-oqibatli bo'ladi. Yomon yo'llardan, yaramas ishlardan, nojo'ya harakatlardan o'zini saqlaydi. Mana shularga o'xshash go'zal xislatli bolalarni el sevadi, e'zozlaydi. «Zumrad bilan Qimmat» ertagidagi Zumrad xuddi shunday hislatli obrazlardan biridir.

Zumrad! Xalq orzu qilgan, istagan, e'zozlagan qizlarning yorqin timsoli. Bugungi qizaloqlar Zumraddan qancha ibrat olishsa, Zumrad kabi chiroyli, odobli, muloyim, aqlli, mehnatsevar bo'lishsa arziydi. Qarang, - yo'lda lolalar,

rang-barang gullar uni ko'rib boshlarini egib, unga salom berar ekan. Zumrad maysalar ustida o'tirib dam olganida, gullar uni olqishlar, bulbullar quvonib, unga qo'shiqlar aytib berar ekan. Xo'sh, bunday maqtov, bunday e'zoz qaysi qizaloqqa yoqmaydi! Hammaga yoqadi. Bunga muyassar bo'lish uchun esa, tinimsiz mehnat qilish, kattalarning, ota-onalarning, muallimlarning o'git-nasihatlariga qattiq amal qilish kerak. Ana o'shandagina xuddi Zumrad kabi behisob boyli-gu shon-sharafga, hurmatga muyassar bo'lishi mumkin.

Zumrad aslida kim? U bir o'gay ona qo'lida so'kish, qarg'ish eshitib bir burda nonga muxtoj bo'lib yurgan qizcha. Zumrad el sevadigan darajada chiroyli, odobli, muloyim, aqlli. Uni bir ko'rgan, bir suhbatlashgan kishi yana ko'rsam, suhbatlashsam deb orzu qiladi.

Zumrad otasini, odamlarni yaxshi ko'radi, hayvonlarni, tabiatni, maysa-yu, o'tloqni sevadi, ularga xizmat qiladi. Hammasiga muloyim boqib, qo'li bilan silab-siypalab erkalaydi. Bundan gullar, o't-o'lanlar, bulbullar quvonib, unga qo'shiqlar aytib berishadi.

Zumrad mehnat bolasi. Mehnat qilgan elda aziz, deganlaridek, uning elib-yugurib ishlashi kampirga xush yoqadi. «Oppoq qizim, shirin qizim, do'mbog'im, munchog'im!» - deya uni erkalaydi, peshonasidan o'pib, sochini silaydi.

Zumrad halol-pokligi, shirin so'zligi, mehnatkashligi, kattani hurmat qilishi, kichikni e'zozlashi bilan sehgarning muhabbatini qozonadi. SHu sababli sehrgar Zumradni tengsiz boylik bilan siylaydi, uni baxtiyor qiladi.

Mehnatkash xalq o'z farzandlarini xuddi Zumrad kabi ishchan, mehribon, iboli, boy-badavlat bo'lishini orzu qilgan. Lekin Qimmat kabi erka, tanti, ishyoqmaslarni yomon ko'rishgan. Qimmat obrazi har tomonlama hech narsada yo'q, ishlamay tishlashga o'rganib qolgan, injiq, muttaham va bedavo farzandni eslatadi.

Bizda va ayniqsa, ertaklarda o'zidan kattalarni hurmat qilish va keksalarni e'zozlash, odamoxunlik va mehnatsevarlik, iboli va hayolilik asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Xalqqa bunday o'zboshimcha qizu farzandiga to'g'ri tarbiya bera olmagan onaning keragi yo'q, degan gap yuradi. Shuning uchun har ikkalasi ham o'limga mahkum – ajdar yutib yuboradi. Bu xolga xalq aslo achinmaydi, aksincha, to'g'ri bo'libdi, deb mamnun bo'ladi.

Kitobxon bolalar ham hayotda Qimmat qiyofasiga tushib qolmaslik uchun o'zlarini o'nглаb olishga, mehnatni sevishga, ko'proq dars qilishga, kitob o'qishga intiladigan bo'ladilar. Axir Qimmat ishyoqmasligi, odobsizligi tufayli uni juda ko'p narsalar xush ko'rmaydi. Hatto, uning yurish-turishi, xatti-harakati, kuchugu sehrgar kampirlarga ham ma'qul bo'lmaydi. Dangasaligi, kekkayganligi, qo'rs-qo'polligi o'zining boshiga etadi.

3-sinf boshlang'ich darsligida berilgan "Ona mehri" (Oktam Usmonov) ertagi yalmongiz kampir, ona va bola haqida. Ertakda yalmong'iz kampirning yovuzligi, jallodligi, ona va bolaga salbiy munosabati, onaning esa bolasiga mehribonligi, jasorati, mardligi, farzandi uchun jonini fido qilishi namoyon etilgan.

Yalmongiz kampir ona va bolani o'g'irlab, yo'q qilmoqchi bo'ladi. Onani sinamoqchi bo'lib, o'z bolasini jarga uloqtirishini so'raydi, lekin ona bolasini avaylaydi, yalmong'izga chang soladi. Yalmong'izni g'azabi qaynab, ona-bolani qamab qo'yadi va onani bolasini o'ldirishini buyyradi. Ona bolasini o'ldirmasligini, uning o'rniga o'zini jzolashini aytadi. Yalmong'iz kampir bunday jasoratli onani ko'rmagan ekan. Ertakda barcha o'zbek onalari timsoli gavdalanadi. Bizning o'zbek onalari shunday mard, jasur, sabrli, irodali bir malakdir.

## **2.2. 2- sinf o'qish darslarida o'quvchilarga ona haqidagi asarlarni o'rgatish usullari**

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ona haqidagi asarlar bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki oilada bola ona tarbiyasida voyaga yetadi. Onadan mehr oladi, ona mehri yordamida o'sib-ulg'ayadi, ota-onaga ko'magida barkamol inson bo'lib voyaga yetadi. Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan ona haqidagi barcha asarlar mazmun - mohiyatiga ko'ra tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'qitishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan yana biri ona haqidagi asarlarni o'qitishdir. 1-sinf "Ona allasi" (Rivoyat), "Mehribon oyijonim" (Po'lat Mo'min) she'ri, "Ona sabog'i" (G'iyos Komilov) hikoyasi, "Ota-ona" (Tolib Yo'ldosh) she'ri, 2-sinf "Alisherning onasi" (Abdulla Oripov) she'ri, "Onam" (Umarali Qurbonov) she'ri, 3-sinf Go'zal fazilat – inson husni bo'limida "Onani rozi qilish haqida" (Hadis), "Ota-onani hurmatlash haqida" (Qobusnoma), "Bobur va Humoyun" (Primqul Qodirov) hikoyasi, "Ota-ona duosi" (Safo Ochil) she'ri, Primqul Qodirovning, "Ona mehri" (O'ktam Usmonov) ertak, 4-sinf "Shoira" (Hakim Nazir) hikoya, "To'maris" (Hamdam Sodiq) kabi hikoyalar berilgan bo'lib, o'quvchilar bu ona haqidagi asarlarni o'qib- o'rganishlari natijasida ushbu asarlarning badiiy estetik qadr-qimmatini chuqurroq o'zlashtirishga erishadilar. Boshlang'ich sinf darsligida berilgan ona haqidagi barcha asarlar o'quvchining yoshini hisobga olgan holda, uzluksiz ravishda mazmun jihatidan chiroyli bayon etilgan.

"O'qish kitobi" darsliklaridagi ona haqidagi asarlar sinfdan - sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengayayib boradi.

1-sinfda o'rgatiladigan "Mehribon oyijonim", she'rida qizchaning onasiga atgan so'zlari aks etsa, "Ona allasi" rivoyatida podshohning alla eshitib onasini yod olgani namoyon etiladi. "Ona sabog'i" hikoyasida buyuk munajjim, shoh va shoir Bobur bilan onasining suhbatini aks ettirilgan, "Ota-ona" she'rida esa to'kis oila haqida fikr yuritiladi.

2-sinfda berilgan "Alisherning onasi" sherida Alisherning munis onasi aks etadi, "Onam" sherida ham bolaning onasiga mehri jo'shqin kuylanadi.

3-sinfda "Onani rozi qilish haqida" hadis berilgan bo'lib, onani rozi qilish haqida so'z boradi, "Ota-onani hurmatlash haqida" Qobusnomadagi parcha berilgan bo'lib, farzand tarbiyasi haqida nasihatlar berilgan, "Bobur va Humoyun" hikoyasida betob Boburmirzoning ota-onasining nolasi aks etadi, "Ota-ona duosi" she'rida ota-ona duosi haqida so'z borsa, "Ona mehri" ertagi orqali onaning jasorati va ona va yalmondoshning munosabati namoyon bo'ladi.

4-sinfda “Shoira” hikoyasi orqali mehmatkash, mehribon, aqlli, dono, Shoira qiz haqida fikrlar bildirilsa, “To’maris” hikoyasida esa o’z ona yerini himoya qilgan mard, jasur, To’maris haqida so’z boradi. Bu kabi asarlar orqali o’quvchilarni onaga mehribon, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab boriladi.

Boshlang’ich sinf o’qish darslarida ona haqidagi asarlar matni shu bilan xarakterliki, o’quvchilar ona haqidagi matnlarni o’qish mobaynida onaga, vatanga bo’lgan munosabati ma’naviy jihatdan rivojlanib boradi.

### **Boshlang’ich sinf o’qish darslarida ona haqidagi asarlar tahlili.**

1-sinf o’qish kitobida berilgan G’iyos Komilovning “Ona sabog’i” matnida ona- bola o’zaro suhbatlashadilar. Matn orqali o’quvchilar osmon, suv, yomg’ir, bulutlar haqida bilib oladilar.

#### **Ona sabog’i                      G’iyos Komilov<sup>1</sup>**

Yoz oxirlab borayotgan damlar. Osmon ko’zguday tiniq, musaffo. Yetti yashar mitti Zahiriddin onajonisining yonginasida Ona-bola o’zaro suhbatlashadilar. Hozir farzandi derazadan ko’kka boqib qolgan edi. U osmondagi uyum-uyum paxtani eslatuvchi bulutlarga javdirab qarardi.

- Aziz onajon, — dedi jajji Bobur,- shu bulutlarni qo’l bilan ushlab bo’la-dimi?
- Voy bolajonim! — kuladi onasi. Momiq emaski, qo’l bilan tutib bo’lsa. Ular suv zarralari-ku. Faqat bug’ holatida. Bug’lardan esa bulutlar paydo bo’ladi. Ular yomg’ir yoki qorga aylanib yog’ayotgandagina qo’lingizni tutsangiz -
- Ha-a-a... angladim, angladim.

1-sinf o’qish kitobida “Ona allasi” haqida rivoyat berilgan bo’lib, bir podshohning alla eshitgani haqida fikr yuritilgan. Podshoh qo’shiq eshitgisi keladi, qo’shiqlar yoqmaydi. Lekin, bir onaxonni allasi yoqadi va podshoh allani eshitib yoshligi va onasi yodiga tushadi.

---

<sup>1</sup> G’affarova T. va boshqalar “O’qish kitobi ”, 1-sinf ucnun darslik. 32-38bet T. , 2012 yil

### **Ona allasi (Rivoyat)**

Qadim zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. U bir kuni qo'shiqchilarni chaqiribdi. Ularga navbatma-navbat kuylashni buyuribdi. Qo'shig'i yoqmaganlarni jazolabdi. Axiyri bir onaxonni keltiribdilar. U alla aytishni boshlabdi.

Podshoh esa qo'shiqni eshitib, yum-yum yig'labdi. Bu kuy unga muis onajonini, beg'ubor bolalaigini eslatibdi. Shuningdek, bu allada xalqning orzu-armonlari ham bayon etilgan ekan:

Senga qo'ydim yaxshi ot, alla,  
Yaxshi niyatdir murod, alla.  
Yurt-u elga suyanchiq, alla,  
Senga bo'lg'usi qanot, alla.



“Mehribon oyijonim” deb nomlangan Po'lat Mo'minning she'ri berilgan. Bu she'rda bola onasiga qarab so'zlaydi. Onasini uni yaxshi ko'rishini, ardoqlashini mehr bilan so'zlaydi.

1-sinf o'qish kitobida berilgan “Mehribon oyijonim” sherida jaji qizaloq onasini mehr bilan jo'shib maqtay boshlaydi.

**Mehribon oyijonim      Po'lat Mo'min<sup>9</sup>**

Juda ham a'losiz, oyijon,  
Juda ham donosiz, oyijon.  
Siz meni qo'zim, deb sevasiz,  
Nur to'la ko'zim, deb sevasiz,

Oyijon, oyijon, oyijon.

Siz meni barchaga yaxchilab,

<sup>9</sup> G'affarova T. va boshqalar "O'qish kitobi", 1-sinf uchun darslik. 38-39bet T. , 2012 yil

Quchasiz o'rgilib, erkalab.

Shu aziz boshimni silaysiz,

Menga baxt, omonlik tilaysiz,

Oyijon, oyijon, oyijon.



1-sinf o'qish darsligida berilgan<sup>11</sup>

2-sinf o'qish kitobida Abdulla Oripovning "Alisherning onasi" she'ri berilgan. She'rda Ulug'mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning yoshligi, uning onasi haqida fikr yuritilgan. Sherda Alisherning onasi qiyoslanadi.

Alisherning onasi

Abdulla Oripov

Bilaman, qanday ayol bo'lgan

Alisherning onasi.

Balki, uning aqliga ham

Lol qolgandir zamonasi.

Balki, uning ko'zlarida

Bo'lgan og'ir bir hayol.

Balki, g'mgin bir zotdir u,

Balki, sho'xchan bir ayol.

---

<sup>1</sup> T G'affarov, Sh. Nurillayeva,. va boshqalar 2- sinfga o'qish darslari ,T., 2012 yil(117-b)

Balki, buyuk farzandiga

Terib, kelgan  
chechaklar.

Balki, tunlar unga bedor

Aytib bergan ertaklar.

Maylida, u kim bo'lmasin,

Yo'g'izbir so'z ma'nosi:

Alisherning onasi u,

Alisherning onasi.

2-sinf o'qish darsligida Umarali Qurbonovning "Onam" she'ri berilgan. Sherda onasini ardoqlagan, e'zozlagan bola haqida fikr yuritilgan. Bola onasini juda ham yaxshi ko'rishini, katta bo'lganida onasini oyga olib chiqishini, gard yuqtirmay kaftida ko'tarib yurishini zo'r ishtiyoq bilan so'zlab bergan.

**Onam. Umarali Qurbonov.<sup>1</sup>**

Qo'lda chaqaloq ukam

Yiglar "inga-inga" lab.

Alla aytsam ko'nmaydi,

Boqmaydi hech yuzimga.

"Tobi qochgan, hoynahoy",

Dedim o'zim o'zimga.

Onam kelib oldilar,

Yig'isi tindi-qoldi.

Go'yo yomg'ir o'rini

Kun chiqib, oftob oldi.

Shunda qalbim charaqlab,

Onajonim quchqanman.

Ta'zim qilib, bosh egib,

Dildan qasam ichganman:

---

<sup>1</sup> T G'affarov, Sh. Nurillayeva,. va boshqalar 2- sinfga o'qish darslari ,T., 2012 yil(118-b)



Oyga uchsam, onamni  
Olib uchay kiftimda.  
Gard qo'ndirmay bir umr,  
Ko'taraman kaftimda.



Boshlang'ich sinf o'quvchilari bu she'ni o'qish orqali onaga mehr-muhabbati yanada ortadi. Onasiga vafodor, mehribon bo'lib o'sib-ulg'ayadilar. Onasiga yordamlashish, uy ishlarini bajarish, ko'maklashish orqali bolalarda mehnatga layoqat sifatlar shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida berilgan barcha asarlar o'z xususiyatiga ega. Ayniqsa, 3-sinf darsligi o'quvchilarni ta'lim-tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda, ona haqidagi asarlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Go'zal fazilat- inson husni" bo'limid berilgan "Onani rozi qilish haqida" hadis berilgan. Bu hadis tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, onani rozi qilish kerkligi haqida.

"Onani rozi qilish haqida" "Hadis" dan

Bir kishi Rasulullohdan: "Men yahshiligimni kimga qilsam bo'ladi?" –deb so'rabdi. "Onagga", -dabdilar Rasululloh. U kishi shu savolni uch marotaba qaytaribdi. Rasululloh "Onagga", deyaveribdilar. To'rtinchi marotaba so'rabdi. Shunda: "Otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga! – debdilar Rasululloh.

3-sinf darsligida berilgan "Ota-onani hurmatlash haqida" Qobusnomadan matnida farzand va ota-ona haqida soʻz borib, farzandning burchi, ot-onaning burchi, vazifasi, mehri gavdalanadi.

3- sinf darsligida berilgan " Bobur va Humoyun" ( Primqul Qodirov) hikoyasida Humoyunning betob boʻlib qolishi, onasining yum-yum yigʻlashi, Boburning esa Humoyunning betobligidan bezovtalanishi va xudoga nolasini aks etgan.

### **Bobur va Humoyun      Primqul Qodirov<sup>1</sup>**

Bobur dovyurak, epchlil, kuchli, oʻta idrokli inson boʻlgan. U ona yurti Andijonni, oilasini qadrlagan, farzandlarini sevgan. Farzand uchun oʻz jonini berishga tayyor turgan otadir.

Bir kuni Humoyun betob boʻlib qoldi. U tuni boʻyi alahlab behush yotdi.

Saroy tabiblari bu ogʻir dardga hech bir davo topolmadilar. Humoyunning onasi Mobimbegim yum-yum yigʻlaydi. Bobur oʻrtanadi. Ogʻir paytlarda Boburga suyangani, undan yordam olishga oʻrgangan odamlar hozir ham biron chora topishni undan kutadilar. Lekin hozir Boburning oʻzi ham chorasizlikdan qiynalardi.

Bobur oʻziga umid bilan qarab turgan odamlarning orasidan oʻtib, Humoyunning toʻshagi yoniga keldi.



---

<sup>1</sup> Umarova M, SH.    Hakimova 3- sinfga oʻqish darslari , T., 2010 yil(167-168bet)

- Humoyun, jigarbandim. Sening betoqatligingga men toqat keltiray. Sening shu og‘ir dardingnl xudo sendan olib, menga bersin...

Gulbadanbeginning yoziahicha, o‘sha kuniyoq Humoyunning ahvoli yaxshilana boshlabdi. Boburning esa mazasi qochib, yotib qolibdi.

3-sinf oqish kitobida Safo Ochilning ”Ota-ona duosi” nomli she’ri berilgan. She’rda ona duosini naqadar muhim ekanligi aks etgan. Bolani ona duosini qanday oqlay olishi haqidagi nolasi gavdalanadi.

”Ota-ona duosi” Safo Ochil<sup>1</sup>

Olmasam gar ko’nglim to’lmas,

Ota-onam duosini.

Olmasam gar yo’lim bo’lmas,

Ota-onam duosini.

Qayda bo’lmay yo’qlagayman,

Mehrin asrab saqlagayman.

Axir, qanday oqlagayman,

Ota-onam duosini.

Umrin bo’yi g’amin yerman,

So’zin durga alishtirmam,

Siymi zardan ortiq derman

Ota-ona duosini.

3-snf o’qish darsligida berilgan ”Ona mehri” (Oktam Usmonov) ertagi yalmongiz kampir, ona va bola haqida. Ertakda yalmong’iz kampirning yovuzligi, onani esa mehribonligi namoyon etilgan.

Yalmongiz kampir onani sinamoqchi bo’lib, o’z bolasini jarga uloqtirishini so’raydi, lekin ona bolasini avaylaydi, unga chang soladi. Yalmong’izni g’azabi qaynab, ona-bolani qamab qo’yibdi va onani bolasini o’ldirishini buyribdi. Ona onasini o’ldirmasligini, uning o’rniga o’zini jzolashini aytibdi. Yalmong’iz kampir bunday jasoratli onani ko’rmagan ekan. Ertakning davomini quyidagi matnda tinglaymiz.

---

<sup>1</sup> Umarova M, SH. Hakimova 3- sinfga o’qish darslari , T., 2010 yil(168-168bet)



## ONA MEHRI (Ertak)<sup>14</sup>

*O'htam Utm mov*

### I

Bundan ming yillar ilgari Soylik degan joyda yalmog'iz kampir yashagan ekan. Turqi sovuq, ko'zlari o'ra kabi chuqur, tishlari esa qoziqday-qoziqday ekan. Yo'lida tog', daryolar uchrab qolsa, bir aylanib qanot chiqarar ekan. Ko'zlagan maqsadiga bir zumda yeter ekan.

U qah-qah urib kulsa, tog'dan tosh yumalab, atrofni dahshatli ovoz qoplar ekan. Uning qadaml yetgan tuproqda giyoh unmas, odam zoti qolmas ekan.

Kunlardan bir kun o'aha yalmog'iz yerga ag'anabdi-da, qanot chiqarib uchibdi. Kun botiah vaqtida Uzunterak degan qishloqdagi olmazorga qo'nibdi. Daraxtlar panasiga berkinib, atrofni kuzatibdi. Shu daqiqada olmazor burchagidagi uyning eshigi ochilibdi.

Uydan bola ko'tarib, yoshgina ayol chiqibdi. U bog'ga kirib o'g'liga olma uzib berayotgan ekan, uni yalmog'iz ko'tarib qochibdi. Yarim kechada Soylikka yetiahibdi. Juvonning ko'zi uyilib yotgan suyaklarga tushib, dodlab yuboribdi. Bolani bag'riga bosganicha dag'-dag' titrar emish. U o'zidan ham bolasini qattiq avaylarmish.

### II

Yalmog'iz hayron bo'libdi. "Insonda onalik mehri g'oyat zo'r kuch deb

eahitgandim. Qani, bir sinab ko‘ray-chi‘, — debdi o‘ziga-o‘zi.

– Hoy, odamzod. Buyrug‘imni bajarsang. hozir qutulasan. Agar so‘zimni ikki qilsang, faqat suyaklaring qoladi. Qani bo‘l, ko‘z oldimda bolangni anavi jarga irg‘it, — debdi yalmog‘iz.

Juvon hayrat bilan unga tikilibdi, biroq churq etmabdi. Bolasini mahkam quchibdi. Yalmog‘iz g‘azablanib, bolaga qo‘l uzatibdi. Ona faryod ko‘tarib, uning yuziga chang solibdi.



Yalmog‘izning g‘azabi qo‘zib, qulog‘i ustidagi uzun sochidan bir tola yulibdi. Shu zahoti ona-bola qop- qorong‘i, zax o‘raga tushib qolibdi. O‘raning to‘rt tomoniga uzun-uzun mixlar qoqilgan ekan. Son - sanoqsiz kovaklardan chipor ilonlar bosh chiqarib turishar, ona-bolaga qarab vishillashar emish. Oyoq ostidagi qumda esa dumlarini gajak qilib chayonlar yurarmish. Yalmog‘iz ayolga do‘q urib:

- Bolangni bo‘g‘ib o‘ldirasanmi yoki ilon va chayonlarga yem bo‘lasanmi? Qaysi birini tanlay- ean?— debdi.
- Go‘shnimni qiymalasang ham bolamdan ajral- mayman!- deb qichqiribdi ona.

### III

Yalmog‘iz qulog‘1 uatidan yana bir tola eochiii yulibdi. O‘aha daqiqadayoq o‘ra ichidagi mixlar, chayon va ilonlar qayoqqadlr yo‘qolibdi. Ammo qum qum ostidan biqir-biqir loyqa suv chiqa boshlabdi.

– Ha, botir juvon, qalaysan endi? — debdi yalmogʻiz.

Ona oʻlishini bilibdi. Bolasini bagʻriga bosib, yalmongʻizga:

– Sen, odamxoʻr, menga jazo beraver. Menga hukmingni oʻtkaza olmaysan.

Axir men — onaman. Mayli, tanamni nimtalab tashla. Lekin men oʻlmay turib, bolamga tega olmaysan, — debdi.

Suv koʻpayib, onani koʻma boshlabdi. Goʻdak yigʻlabdi. Ona bolasini oʻng kaftiga oʻtqazibdi. Qoʻini baland koʻtarib, suvdan chiqarib turibdi. Bola ojiz kaftda pitirlay berib, yiqilib tushibdi. Ona jon talvasasida bolasini yana yuqoriga koʻtarib olibdi.

Buni koʻrgan yalmogʻizni titroq bosibdi. Chunlu u bunday qatʻiy irodali ayolni sira koʻrmagan ekan.

Yalmogʻiz yengilibdi. U osmonga qarab alam bilan oʻkiribdi. Oʻkiraverib charchabdi. Soʻng bir dumalab, qanot chiqaribdi. Togʻ-toshlar orasiga yoʻl olibdi.

#### IV

Oʻradagi suv sekin-asta kamayibdi va qumning oʻzi qolibdi. Bechora ona bolasini mahkam quchoqlaganicha behush yotgan emish. Shu vaqt bulbulcha paydo boʻlibdi. U ona-bola turguncha sayrayveribdi. Ona holsizgina qoʻzgʻalibdida, bir iloj qilib bolasini oʻradan olib chiqibdi.

Onaning koʻngli yorishibdi. U bolasi bilan qishlogʻiga yoʻl olibdi. Oradan talay yoz-qish oʻtibdi. Ona qarib qolibdi. Oʻgʻilchasi esa pahlavon boʻlib ulgʻayibdi. Bir kun pahlavon togʻ-toehlarda ov qilib yurgan ekan. Uni bulbulcha uchratib, tanib qolibdi. U sayrab pahlavonga hamma voqeani hikoya qilibdi. Pahlavon yalmogʻizdan odamlar oʻchini olishga bel bogʻiabdi.

Pahlavon yalmogʻizni yetti yil izlabdi. Oxiri Soylikdagi eski gʻordan topibdi. U bilan ikki kecha-yu ikki kunduz olishibdi. Uchinchi kun yalmogʻizning yuragiga qilich sanchibdi. Shu-shu el-yurt yalmogʻizdan qutulib, bexavotir yashay boshlabdi.

4-sinf oʻqish darsligida berilgan Hakim Nazir “Shoira” hikoyasi odobli



Shoira qiz va uning onasi haqidadir. Habiba opa qizini baholari pasayib ketganini ko'rib, uni uy yumushlaridan ozod qiladi. Lekin bir kuni onasi ishdan kelganida Shoira uyda yo'q edi. Ona qizidan hafa bo'ladi. U qizini izlan Oitbibilarning uyiga boradi. Ona uyerdagi ahvolni ko'rgandan keyin, qizini holatiti tushundi. Ona qiziga yaxshi ish qilganini lekin, darslardan orqada qolmasligini aytadi. Qiz onasidan xursand bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdi-ki, hikoyada do'slik, ona mehri, yaxshilik kabi fazilatlar namoyon bo'lgan. Yaxshilik qilaman deb onasini aldamaslik, doim onani maslahati bilan ish tutish kerakligini bolalar tushunib yetadilar. Bu hikoyani o'qib bolalar onalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lishni o'rganadilar. Boshqa savob ishlarni bajarish bilan birgalikda, darslarni ham o'z vaqtida bajarish kerakligini tushunib yetadilar.

Hamdam Sodiqovning "Tomaris" hikoyasida Massagetlar malikasi To'maris haqida bayon qiladi. Eramizdan avvalgi 529 – yilda bo'lib o'tgan fors-massagetlar jangi voqealari aks etgan. Lekin, jangda To'marisning o'g'li Spargangiz vafot etadi. Tomaris alam ustida o'glining o'chini oladi va jangda mardlarcha g'olib bo'ladi. Hikoyada mard, jasur ona timsoli gavdalanadi. To'maris obrazi orqali bolalar vatanga muhbbat ruhida tarbiyalanadilar.

### **2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona haqidagi asarlarni o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari**

Bugungi kunda ta'lim tizimining qaytadan isloh qilinishi natijasida yangi ta'lim tizimi joriy qilinishi va yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish maktab dasturlariga va darsliklariga zamon talabiga mos mavzularni mukammal yorituvchi uslublarni dars davomida joriy qilish va ularni qo'llash o'quvchilarning o'qishdagi faoliyatini yanada samarali qiladi.

Ana shu yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish darsni noan'anaviy shaklda tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilarini bir muncha erkin fikrlash va ijodkorlikka o'rgatadi. Shu maqsadda YaPTlardan, xususan, interfaol yoki innovatsion usullardan foydalanish mumkin.

Innovatsiya so'zi lotincha bo'lib, "inovatsis–yangilik" so'zidan kelib


chiqqan. yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni darslarda qo'llagan holda mavzularni bolalarga o'rgatishda innovatsion uslublarning ahamiyati kengdir.

Yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishda o'quvchi va o'qituvchi orasidagi bog'liqlikni mukammallashishiga erishish va bilimlar tizimligi, boshqaruvchilik faoliyatining takomillashuviga erishish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchi ko'proq o'quvchilarni mustaqil gapirishlariga, o'z-o'zini boshqarish jarayoniga ega bo'lishiga erishtirmog'i lozim. Shuning uchun ham bugungi kunda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning barcha fanlarga keng ko'lamda joriy etilishining asosiy sababi ham shundadir. I–IV sinflarda hadislarni o'rgatishda va o'qitishda ham yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bir qancha usullarini qo'llash mumkin. Albatta bu usullardan foydalanishda o'quvchilarning yoshi, fikrlashi va dunyoqarash doirasi ko'lamiga e'tibor qaratish lozim. Hadislarni o'qitish I–II sinflardagiga nisbatan III–IV sinflarda ko'proq amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan I–II sinflarda ko'proq hadislarni o'qitishni turli didaktik o'yinlarga bog'lab o'tish maqsadga muvofiq. Bunda didaktik o'yinlar soddaroq va izchil bo'lishi lozim.


***“Venna diagrammasi” usulini boshlang'ich sinflardan IV  
sinfda hadislarni o'qitishda qo'llash***

1. Hadis. Beshikdan qabrgacha ilm izla.
2. Hadis. Ilm olmoqlik har bir musulmon uchun farzdur.
3. Umumiylik jihatlari.
4. Farqli jihatlari.




Ilm istamoq har bir musulmon uchun farzdur.  
Ilm olishga undaydi.  
Musulmonchilikka undaydi.  
Farz tushunchasini kengaytiradi. Ona o'giti.






Bu usullardan foydalanishda hadislar bilan birga hadis va maqol, hikmatli so'zlarni ham olish mumkin. Ushbu usul boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushunarli tarzda bayon etilishi lozim.

### ***Klaster usulini boshlang'ich sinflardan IV sinfda hadislarini o'qitishda***





### **I–IV sinflarda hadislarini o`qitishda qo`llash mumkin bo`lgan didaktik o`yinlar**

#### **“Poezddagi sayohat” o`yini**

Ushbu didaktik o`yinda sinf o`quvchilari uch guruhga ajratiladi va har bir guruh biror chiroyli nom bilan nomlanadi. Albatta nomlar ham mazmunan hadislariga yaqinroq bo`lishi yoki istiqlolni ifodalovchi, milliylikni aks ettira oladigan bo`lishi kerak. Masalan, “Sahobalar”, “Muhaddislar”, “Kelajak”, “Humo”, “Istiqlol” kabi nomlarni berish. Bu uch guruh bitta poezddagi uchta vagonga oldinma ketin joylashib, sayohat qilishlari lozim. Lekin, kim birinchi vagonda ketishi noaniq. Bu noaniqlikka aniqlik kiritish uchun o`quvchilar quyidagi to`rtta shartni bajarishlari va birinchi vagonga harakat qilishlari lozim. Shartlar esa quyidagicha:

#### **1. Shart. “Odob inson ko`rki”.**


Bu shartda har bir guruh bir–biriga hadislar aytadi. qaysi guruh ko`p va mazmunli hadis aytganligiga qarab, ushbu shartning g`olibiga aylanishi mumkin. O`quvchilar bu shart orqali ko`proq hadislar yodlashga harakat qilishadi.

## 2. Shart. “Zehnu zakovat”.

Bu shartda guruhlar bir–biriga hadislarining birinchi qismini aytadi, ikkinchi guruh esa davom ettirib ketaveradi. qaysi guruh hadis aytolmasa yoki hadisning davomini topa olmasa o`yindan chiqib turadi. Huddi shunday o`yin davom etib ketadi. Masalan, birinchi guruh “Safar qilinglar...” desa, ikkinchi guruh “Sog`lom bo`lasizlar”, ya'ni bunda “Safar qilinglar–sog`lom bo`lasizlar” hadisini aytishlari kerak. Endi uchinchi guruh “Uch toifa odam jannatga kirmaydi...” desa, birinchi guruh “1. Ota–onasini ranjitgan, 2. Mayxo`r, 3. Berganini minnat qiluvchi kishi” deya davom ettirib boraveradi.

## 3. Shart. “Oltin toj” o`yini.

Bunda o`quvchilar “Oltin toj” o`yinini o`ynashadi, ya'ni qo`yidagi rasmdan foydalanib o`ynaydi.



Ushbu rasmdagi har bitta topshiriq yoki savol yashirin savollardan hadislar

haqidagi topshiriqlardan iborat bo'lgan rasmlardan tashkil qilinadi va bu topshiriqlar bajarilishi uchun uch guruhning sardori o'zaro bellashishadi. Har bitta savolga javob yozishga harakat qilishadi.

#### **4. Shart. “Kim zukko”.**

Ushbu shartda har bir guruh konvertdagi to'rtta hadisning mazmunini gapirib beradi.

Har bitta shartga eng yuqori ball uch ball qo'yiladi. O'quvchilarning shartlarda to'plagan ballariga qarab, vagonlardagi o'rinlarning almashinish jarayoni sodir bo'ladi. Eng yuqori ballni qo'lga kiritgan guruh birinchi vagondan joy olishi mumkin.

Ushbu didaktik o'yinni dars davomida qo'llashdan asosiy maqsad o'quvchilarga hadislarini va hadislariga bog'langan odob ahloq ko'rinishlarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga singdirish hadislarini o'qitish uchun didaktik o'yinlardan foydalangan holda kichik maktab yoshidagi bolalarga ta'lim–tarbiyaning yuksak ko'rinishlarini shakllantirishdan iborat. Ushbu didaktik o'yinni “Odobnoma”, “O'qish” darslarida qo'llash mumkin va ushbu didaktik o'yin orqali o'quvchilarni ham mustaqil fikrlashga, ham hadislarini o'rganishga chorlash mumkin.

Boshlang'ich sinflarda dars davomida bunday didaktik o'yinlardan “Sirli sandiq”, “Bahoroyning savollari”, “Zanjir”, “Imom al Buxoriy aytadi” kabi bir qancha turlaridan hadislarini o'qitishda foydalanish mumkin.

Yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etilishining faqatgina dars davomida darslardagi mavzularga o'z ta'sirini ko'rsatib qolmay balki, baholash mezonining o'zgarishiga ham sabab bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda ball sistemasi asosidagi reyting tizimida o'quvchilarni baholash, ball olish masalalari MSTI, ya'ni majburiy standart tekshiruv ishlarini o'quvchilardan tez–tez olib turilishi albatta o'quvchilarda bilim va ko'nikmaning shakllanishidagi asosiy vositalardan biri bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda hadislarini o'qitish jarayonida ham huddi shu tizimdan foydalanish va rag'bat

kartochkalaridan, tarqatma materiallardan foydalanish samarali natija beradi.

Didaktik o`yinlardan yana biri “Kim topqir” o`yinidir.

### **“Kim topqir” o`yini**

Hadislarni o`rgatishda “Kim topqir” o`yini o`ynatish quyidagicha amalga oshiriladi. Sinf o`quvchilaridan to`rttasi doska yoniga chiqarilib, o`quvchilarga teskari qaratilib qo`yiladi va ularning orqasiga hadis ilmi bilan bog`liq tushunchalar yoki mashhur hadisshunoslarning ismlari yozib qo`yilgan taxtachalar ilinadi. So`ngra bu to`rt o`quvchi o`quvchilarga qaraydi. Ularga 5–6 imkoniyat beriladi. Ular 5 yoki 6 savolni o`quvchilarga berish orqali o`zlarining kim yoki nima ekanligini aniqlashadi. Savollar “aylanma” savol yoki “ilgakli” savollardan bo`lib, to`g`ridan–to`g`ri “Men hadismanmi?” yoki “Men Imom al Buxoriymanmi?” deya savol berish o`yin qoidasining buzilishini ko`rsatadi. Bu o`yin ham o`quvchilarni o`ylashga, fikrlashga, hadislar haqidagi barcha ma'lumotlarni to`plab qayta ishlashga, ya'ni analiz–sintez jarayonining olib borilishiga zamin hozirlaydi.

### **“Zanjir” o`yini**

Ushbu o`yinda o`quvchilardan ettitasi ishtirok etadi. Bunda birinchi o`quvchi bir varaqchaga hadisning bosh qismini yozadi. Ikkinchi o`quvchi uni to`ldiradi va u endi boshqa bir hadisning bosh qismini yozadi. Keyingi o`quvchi ham bu hadisni to`ldiradi. Huddi shunday hadislar aylanib boraveradi. Lekin, kim hadis davomini yoza olmasa yoki o`zi hadis topa olmasa, zanjir o`sha erda uziladi va o`sha o`quvchi o`yindan chiqadi. Bu o`yinni butun sinf o`quvchilariga ham qo`llash mumkin. Ushbu o`yinining asosiy maqsadi o`quvchilarning eslash qobiliyatini o`stirish, qolaversa hadislar yuzasidan fikrlashga qiziqtirishdir.

### **“Bahoroyning savollari” o`yini**

Bu o`yin boshqa o`yinlardan texnikaviy jihatdan ancha farqlanadi va o`yindagi mazmun mohiyat quyidagicha. Bahor qizi tasviri tushirilgan rasmda uning o`nta savoli va bu savollardan xohlaganini tanlash texnikasini avtomatlash–

tirilgan qurilma orqali biz bir o`quvchidan xohlagan o`nta savoldan birini tanlashi mumkinligini aytamiz. U o`nta savolning birortasini tanlaydi. Deylik to`qqiz sonini tanladi. Shunda Bahoroy bizga to`qqiz sonining shartini ko`rsatadi. Ya'ni to`qqiz sonining sharti o`quvchi muhaddislar sultoni haqida ma'lumot berishi kerak. Albatta bunda savollar va shartlar o`quvchilarning bilim darajasi va yoshiga qarab beriladi. O`qituvchi o`zi aytmagan yoki bermagan ma'lumotlar haqida savol berishi noto`g`ri hisoblanadi.

### **“Jimjitlik” o`yini**

Bu o`yin o`quvchilarning hayolini, tasavvurini va fikrlashini kengaytirishga xizmat qiluvchi o`yin bo`lib, bunda o`quvchilar jim o`tirishadi. Ya'ni ular hech qanday so`z ishlatmaydi. O`qituvchi esa doskaga hadislar haqida savol yozadi yoki buyuk muhaddislar nomini, hadislarini yozib qo`yishi mumkin. O`quvchilar yozilgan hadis, savol yoki muhaddislar haqida tushunchalarini so`zsiz mimika orqali bayon etishga harakat qilishlari kerak. Bu o`yin turi ko`proq nutq o`stirishga bog`liq bo`lib, o`quvchilar qo`l harakatlari orqali fikrni ifodalashga harakat qilishadi.

Boshlang`ich sinflarda didaktik o`yinlar bilan bir qatorda albatta quyi sinf o`quvchilarining tarqoq diqqatini bir joyga to`plash maqsadida dam olish daqiqalari ham o`tkazilib boriladi. Dam olish daqiqalari mavzuga bog`langan holda tashkil qilinsa o`tilayotgan mavzu o`quvchilar ongida tezroq sintez qilinishi va o`qituvchi birgina dam olish daqiqasini o`tkazish orqali o`quvchida ushbu mavzuga bog`liq bo`lgan ko`plab tushunchalarni hosil qilishi mumkin.

Buyuk ajdodlarimiz merosini o`rganishda yoki hadislarini o`rganish jarayonida quyidagi dam olish daqiqalaridan yoki bolalarga muhaddislar haqidagi she'rlarni yodlatib, o`rgatib borish mumkin. Bu jarayonda o`quvchilar mexanik yodlagan so`zlarini takror aytish orqali mazmunini chaqishga harakat qiladi.

### **Dam olish daqiqasi**

Tariximiz buyuk merosi,

O`zbek xalqining buyuk bobosi.  
Jahonda dovrug`i bor ustoz muhaddis,  
Yozib qoldirgan bizga necha ming hadis.  
Samarqandga chorlar bizni bir maqbara,  
Islom olamidagi ulug` ikkinchi Ka'ba  
Hadislarni o`rganib,  
Odob nima anglaymiz.  
Ota–ona hurmatin,  
Bilib salom bergaymiz.  
Hadis o`rgangan bola,  
Zehnli bo`lar doim.  
Imom al Buxoriy ham,  
Bilsangiz buyuk olim.  
Yoshlikdan olsak bilim,  
Toshga o`yarmiz naqsh.  
Keksayib olsak bilim,  
Muzga bitarmiz shakl.  
Shuning uchun donolar,  
Deydilar o`rgan bilim.  
Ilmda ko`p sinoat,  
Ilmla yuksak elim.

Keltirilgan dam olish daqiqalarini o`quvchilarga yodlatish mobaynida ushbu hadislar va Imom al Buxoriy haqidagi fikrlarni ifodalab, izohlab berish, ota-ona haqida ma'lumotga ega bo'lish, onaning o'gitlariga quloq solish, tushunarsiz so`zlarni tushuntirib o'tish va dam olish daqiqasini o`quvchilarning aqliy

salohiyatiga qarab o`rgatish lozimdir.

Demak, boshlang`ich sinflarda ona haqidagi asarlarni o`qitishda I–IV sinflardagi har bir sinf uchun mos keluvchi usullardan foydalanish va ushbu sinflarning aqliy qobiliyatiga e`tibor qaratgan holda osondan qiyinga qarab, oddiydan murakkabga tomon yo`naltirilgan usullarni va didaktik o`yinlarni qo`llash lozim. Usullardan III–IV sinflarda qo`llash mumkin bo`lganlarini I–II sinflarda qo`llash mumkin emas. Didaktik o`yinlar va dam olish daqiqalaridan ona haqidagi asarlarni o`rgatishda foydalanish samarali natija beradi.

Bugungi kunda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning darslarga joriy etilishi ushbu sinf o`quvchilarini kelajagi porloq, o`zbekiston yoshlari bo`lib etishishiga erishish uchun asosiy vosita sifatida ishlatish, mafkuramizdagi bo`shliqlarning oldini olishga yordam beruvchi, milliy istiqlol g`oyasi va ma'naviyatimiz shakllanishida bosh mezonlardan biri bo`lib xizmat qilishi mumkin.

Maktab dasturlarida ishlab chiqilgan nizomlar yoki tashkiliy faoliyat jarayonlarini kuzatganimizda shunday jarayonlarga duch kelamizki, maktabda boshlang`ich o`qish darslarida ona haqidagi asarlarni o`rganish juda muhim rol o`ynaydi. Ona haqidagi asarlarni o`rganish tarbiya borasida o`quvchilar onggi va fikrlash qobiliyatiga juda katta ta'sir o`tkazadi.

Birinchi sinf o'quvchilari o'qishning bir necha turlarini, ya'ni, ravon, tez o'qishni, ayni paytda, turli janrdagi matnlarni o'qib, o'rganib olgan bo'ladilar. Ikkinchi sinf o'quvchilari bilan ana shu malakalarni takomillashtirishga qaratilgan ish tizimi olib boriladi. Bolalarning o'qish tezligini oshirish, ifodali o'qish malakalarini egallash, badiiy matn ustida ishlash, she'r va kichik matnlarni yod olish, tushunganlarini gapirib berish kabi ish turlarini ko'proq o'tkazish ko'zda tutiladi.

O'qish kitobida (“Bilim bog'i”), “Ona yurtim — oltin beshigim”, “Maktabim — kitobim — oftobim”, “Oltin kuz — hosiling yuz”, “Mehnat — baxt keltirar”, “Otalar so'zi — aqlning ko'zi”, “Kumush qish — misoli oqqush”, “Qushlar va



hayvonlar — bizning do'stimiz”, “Ertaklar — yaxshilikka yetaklar”, “Yoz — o'tadi soz” kabi bo'limlar mavjud. Har bir bo'lim bolalarga ta'lim berish bilan birga, bilim, malaka hosil qilish, ularda voqea, hodisalarga qiziqish uyg'otish, rasmlarni kuzatish, xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Kitobdagi rasmlar bolalarning his va tuyg'ularini, nutqlarini o'stirishga hamda ularni ijodiy tahlil qilishga mo'ljallangan. O'quvchilar rasmlarni tomosha qilib, tasvirlangan narsa, voqea-hodisalarga o'z munosabatlarini bildiradilar, ulardan zavq oladilar, o'zlari ham ijodiy ravishda asar mazmuniga mos rasmlar ishlashga, o'z taassurotlarini ifodalashga o'rganadilar.

Darslikda berilgan har bir matn o'quvchilarning fikrlash doiralarini o'stirish bilan birga, ularda tevarak-atrofga munosabat, odob-axloq malakalarini o'zlarida mujassamlash, asardagi qahramonlarga taqlid qilish, ulardagi eng yaxshi xislatlarni egallash, irodali, mehnatsevar, jasur, kamtar, vijdonli, mehribon va iltifotli bo'lish kabilarni o'zlashtirib borishga qaratilgan. Shuningdek, o'qiganlarini mazmunli qilib gapirib berish, fikrni jamlash, uzviylikka e'tibor berishga alohida ahamiyat qilinadi. Shunday qilinganda matn mazmunini o'zlashtirish ancha oson bo'ladi. O'qituvchi bolalarni darslikka nisbatan qanday munosabatda bo'lishga, undan ijodiy foydalanishga, mundarijasiga qarab kerakli asarni tez topish, o'qishga kirishish uchun ruhan tayyorlanish va shu talablarni bajarishga o'rgatadi. O'quvchilarning o'quv dasturi talablarini o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratish, ularni darsda faol qatnashishga undash, o'zlashtirish sur'atlari va imkoniyatlariga qarab qo'shimcha vazifalar berish, darsning qiziqarli va samarali bo'lishi uchun mos vazifalardan unumli foydalanish, dars jarayonida bolalar jamoasi e'tiborini jalb qilgan holda muammoli vaziyatni yuzaga keltirish va uning yechimini topish, o'quvchilarning bilim, malakasini baholash, uyga beriladigan vazifalarni me'yorlash, ularning zo'riqishlarini oldini olish lozim.

O'qish darslariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- ta'lim va tarbiya maqsadining birligi;
- ta'lim va tarbiya vazifalarining birligi;
- ta'lim va tarbiya manbalarining uzviy bog'liqligi;

— ta'lim va tarbiya metodlarining birligi.

- Har bir dars pedagogik, psixologik, metodik tomondan to'g'ri tashkil etilishi, didaktik talablarga amal qilgan holda o'tkazilishi kerak. O'qituvchi darsda vaqtni to'g'ri taqsimlashi, undan unumli foydalanishi zarur. O'qish darsi o'zining mazmuni va mundarijasi jihatidan boshqa darslardan farq qilishi va ta'limda yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak.

Darsni tashkil etishda bolalar e'tiborini qiziqarli misollarga jalb qilish, tasviriy san'at asarlarini maroq bilan tomosha qilishga qaratish, shu yo'sinda asosiy mavzuga o'tish lozim. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishda, ko'rgazmali qurollar tayyorlashda o'quvchilarning didini, nafosat tarbiyasini o'stiradigan materiallar tanlashi, uning o'zi esa darega hamisha yaxshi kayfiyat bilan kirishi, o'quvchilarda ham yaxshi kayfiyat hosil qilishi kerak. Bunday sifatlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zaruriy odatga aylanishi lozim.

Darsda bolalarga to'la erkinlik berish, o'qituvchi bilan bolalar o'rtasida samimiy munosabat bo'lishi, ishonch va hurmat tobora ortib borishi kerak. O'tilgan mavzuni so'rashda ham, yangi mavzuni o'rgatishda ham bolalarning xotirasini mustahkamlovchi omillardan foydalanish, sezgi a'zolarining ishtirokini kuchaytirish, ko'rish va eshitish faoliyatlarini rivojlantirish, ularning faolliklarini ta'kidlab, darsda yanada yaxshi qatnashishga undash lozim. Sinf xonasini dars o'tishga tayyorlash, ko'rsatiladigan ko'rgazmalar, o'qib beriladigan har bir matn yoki magnit tasmasidan eshittiriladigan yozuvlarni taxt qilib qo'yish, o'quvchilarni esa mas'uliyatni his etish va o'quv qurollarini taxt qilishga o'rgatish darsning samarali o'tishiga imkon beradi.

Mavzuning oson yoki murakkabligiga qarab, dars jarayonida vaziyatni o'zgartirish, muammoli o'qitish usulini keng qo'llash, interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda bolalar tomonidan darsning qanday o'zlashtirilayotganini kuzatib, ularning idrok etish faoliyatlarini, hissiyotlarini faollashtirish kerak. Shunday qilib, o'quvchilarni shaxs sifatida kamol topishlarini ta'minlovchi barcha vositalarni qo'llash orqali dars sifatining yaxshi bo'lishiga erishish mumkin.

Birinci sinf o'qish kitobi darsligida 8- mart bayramiga va o'naajonlarga oid mavzular deb darslikning 37- betidagi “ Ona allasi”<sup>1</sup> (rivoyat) hamda 38-betdagi Po'lat Mo'minning “Mehribon oyijonim” mavzularini olishimiz mumkin. Ushbu mavzular ‘Ko'klam -yashnaydi olam” bolimida berilgan bo'lib, yillik ish rejaga ko'ra 8-mart bayramiga to'g'ri keladi. “Ko'klam — yashnaydi olam” bo'limi 9 soatga mo'ljaqlangan. "Ko'klam — yashnaydi olam" bo'limida fasllar kelinchagi, yashash-yasharish faslining o'ziga xos xususiyatlari, inson hayoti va uning tabiatga ta'siri haqida hikoya qilingan asarlar o'rin olgan. O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar:

- 1.Bahor. 2.Lola. 3.Ona allasi. 4.Mehribon oyijonim. 5.Bekinmachoq.
- 6.Qushcha. 7.Quyoshdan erta turib. 8.Navro'z bayrami. 9. Navro'z.

Ushbu mavzularni 8-mart bayrami arafasiga to'g'ri kelishini hisobga olib o'quvchilar bilan bayram haqida qisqacha suhbat o'tkazish mumkin. Bu suhbatda bayramning kimlarning bayrami ekanligi va ushbu bayramga biz qanday sovg'alar qilish mumkinligi haqida savol-javob o'tkaziladi. Darslikda keltirilgan she'rni yod olish orqali ularga chiroyli sovg'a qilish mumkinligini aytiladi.

Ona allasi<sup>2</sup> (Rivoyat), Ushbu rivoyat orqali o'quvchilar ona allasini naqadar katta kuchga ega ekanligi va uning sehrli ohangi va jozibasi tufayli har bir farzand har tomonlama kamol topib tarbiya ko'rishi haqida bilib oladilar.

P'olat Mo'minning “Mehribon oyijonim” she'ri esa chin ma'noda o'quvchilarning onalari uchun bayram sovg'asi bo'lishi mumkin.

Juda ham a'losiz oyijon  
Juda ham donosiz oyijon  
Siz meni qo'zim deb sevasiz  
Nur to'la ko'zim deb sevasiz  
Oyijon oyijon oyijon  
Siz meni barchaga yaxshilab,  
Quchasiz o'rgilib erkalab,

Shu aziz boshimni silaysiz  
 menga baxt omonlik tilaysiz  
 Oyijon oyijon oyijon

2-sinf darsligida 8-martga oid alohida bo'lim ajratilgan bo'lib 8 soatga mo'ljallangan. Ular quyidagi mavzuardan iborat:

| <b>8-mart - Onajonlar bayrami</b> |                                                                    |        |  |  |
|-----------------------------------|--------------------------------------------------------------------|--------|--|--|
| 1                                 | Ona hurmati. Ona aziz                                              | 1      |  |  |
| 2                                 | Rasm. T.G'oziyev.                                                  | 1      |  |  |
| 3                                 | 11-nazorat ishi. Gullar suhbat.A Ahmedova.                         | 1      |  |  |
| 4                                 | Gullarni seving, gullardek go'zal bo'lasiz. Marvaridgul.Mahmudova. | 1      |  |  |
| 5                                 | Haloskor. Y. abdullayeva                                           | 1      |  |  |
| 6                                 | Navro'z-bahor bayrami. M.Alaviya.                                  | 1      |  |  |
| 7                                 | Sumalak. (Rivoyat)                                                 | 1      |  |  |
| 8                                 | Qo'riqchi. M.Xidir.                                                | 1      |  |  |
|                                   | Jami:                                                              | 8-soat |  |  |

3-sinf «O'qish kitobi» materiallarining yillik rejalashtirilishi asosida yaratilgan. 3-sinfda o'qishni o'rganish uchun o'quv rejasida haftasiga 5 soat dars ajratilgan. Bu darslarda o'tilayotgan mavzular yuzasidan o'quvchilarning izchil, asosli, puxta bilim va malaka hosil qilishlarini ta'min etish lozim. Bunga o'quvchilarga ta'lim berishning asosiy vositasi - dars orqali erishiladi. 3-sinf «O'qish kitobi»dagi mavzularni o'tishda o'quvchilarning o'qish texnikasi, bilim saviyasiga qarab darslarni ijodiy tashkil etish lozim.

O'qish va nutq o'stirish» dasturi Davlat ta'limi standart talablariga javob beruvchi konsepsiya asosida tuzilgan. Unda g'oyaviy, tematik, estetik, qisman mavsumiy tizimlar hisobga olingan. U o'z navbatida bolaning tevarak-atrofdagi voqelikni idrok etishini ko'zda tutadi. O'qish kitobi bosh mavzularning bunday tuzilishi, birinchidan, ta'lim-tarbiya berish uchun muhim bo'lgan adabiy, ilmiy-

ommabop asar namunalari bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Ikkinchidan, o'quvchilarni yuqori sinflarda adabiyot fanini o'rganishga tayyorlaydi.

Dasturda milliylik hisobga olingan hamda darslikdagi matnlarning xilma-xil bo'lishi nazarda tutilgan. Masalan, Abdurahmon Sa'diy, Abdulla Avloniy, Shuhrat, Oybek, Hamza, Cho'lpon, Quddus Muhammadiy, Mirkarim Osim, Erkin Vohidov,

Xudoyberdi To'xtaboyev, Malik Murodov, Abdulla Oripov, Tohir Malik va boshqalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasi, yoshi, ruhiyatiga mos keladigan, ularning shaxsiy jihatlarini shakllantirishga ko'mak beradigan asarlari, Amir Temur o'g'itlari, Alisher Navoiy hikmatlari, rivoyat, latifa, ibora hamda axloq-odobga oid hadislarni o'rganish e'tiborga olingan.

3-sinf o'quv dasturidan quyidagi bosh mavzular (bo'limlar) o'rin olgan:

«Ona bitta, Vatan yagona», «Xalq og'zaki ijodi», «Kuz manzarasi va mehnat», «O'tmishni o'rganish — burchimiz», «Kumush qish», «Vatan posbonlari», «Tengdoshlar», «Ulug'lardan o'rganmoq — oqillik», «Bahor manzarasi va mehnat». Bu bo'limlardagi materiallar bilan tanishish orqali o'quvchilar mustaqil O'zbekistonimizning ijtimoiy-ma'naviy hayoti, tabiati, vatanimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, mustaqillikni saqlab qolishda yoshlarning vazifalari haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar. Ulug' ajdodlarimiz hayoti va faoliyatiga, o'zbek xalqining mehnatiga bag'ishlangan mavzularni o'rganish o'quvchilarni ma'naviy, ma'rifiy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda alohida o'rin tutadi. Shuningdek, bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, chidamlilik, talabchanlik kabi sifatlarni tarbiyalashga, umuman, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishga ko'maklashadi. Zero, yoshlar mustaqil mamlakatimizning yetuk mutaxassislari bo'lishi uchun qayg'urish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Dastur bo'limlaridan o'rin olgan ayrim mavzular orqali o'tmishdagi shart-sharoit, turmush tarzi haqida tushuncha beriladi. Vatanimiz sarhadlari, tabiati, jamiyat haqidagi bilimlari boyitiladi va umumlashtiriladi. Dasturda she'riy asarlarni yod oldirishga, turli janrlar; hikoya, she'r, ertak, masal, rivoyat, qo'shiq, doston, maqol, ibora, latifa, topishmoq va tez aytishlar bilan tanishtirishga e'tibor

berilgan. O'quvchilar jonajon o'lka tabiatini muhofaza qilish haqidagi asarlarni, xalq og'zaki ijodi materiallarini chuqurroq o'rganadilar. Ular orqali bolalar Vatanimizning ramziy belgilari (bayroq, gerb, madhiya), O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ulug' allomalarimiz al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu All ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniylarning xalq manfaati uchun kurashganlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari talab qilinadi.

Yil davomida o'qish darslarida so'zlarni bo'g'inlarga bo'lmay, ovoz chiqarib, ifodali o'qish; bo'g'in tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni bo'g'inlab o'qish; o'qiganda mazmun jihatdan muhim bo'lgan so'zlarni tovush kuchi bilan ajrata olish; gap va matn qismlari orasidagi to'xtamlarga rioya qilish o'rgatiladi. O'quvchilar o'quv yilining birinchi yarmida bir daqiqada 50-60 so'zdan iborat notanish matnni o'qish malakasini egallashlari nazarda tutiladi. O'quv yilining ikkinchi yarmida esa so'zlarni yaxlit (butunligicha), to'g'ri, ongli, yetarli tezlikda, ifodali o'qishlari zarur. (O'qish me'yori — bir daqiqada 65-75 so'zdan iborat bo'lib, notanish matnni o'qishlariga erishish lozim). <sup>15</sup>

8-mart bayrami bahor bayrami hisoblagani uchun unga doir mavzular asosan bahor mavzusidagi bo'limlar ichida keladi. 3-sinf dasturida ham “Bayramingiz muborak” mavzusidagi she'ri “Keldi bahor - gul bahor” bo'limiga kiritilgan. Bu bo'limda bahor tabiati, bu faslning go'zalligi, kishilar mehnati, Navro'z bayrami, bahor faslidagi bayramlar, insonlarining tabiat bilan o'zaro munosabati, jonivorlarning hayoti haqidagi asarlar berilgan. <sup>1</sup>O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar: 1. Erta bahor. 2. Bahor yaqin. 3. Tabiat bilan suhbat. 4. Boychechak. 5. Quyuncha. 6. Bayramingiz muborak. 7. Ko'klam yomg'iri. 8. Varrak. 9. Qaldirg'och. 10. Navro'z — yurtim bayrami. 11. Yurtim kamoli. 12. Daraxtlarni oqlaganda. 13. Lola.

## **BAYRAMINGIZ MUBORAK<sup>2</sup>**

*Yusuf Shomansur*

Sakkizinchi mart bugun, Quvonchlarim bir jahon.

<sup>15</sup>Boshlang'ich sin o'qish fanidan uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiyalar. Ziyonet.uz

<sup>2</sup>Umarova M. va boshqalar 3- sinfga o'qish darslari, T., 2010 yil

Bayramingiz muborak, Aziz ona — onajon!  
So'zlari bol, durdona, Mehnatda eng mardona,  
olam ichra yagona, Sizsiz, ey aziz ona!..  
Bizni yuvgan, to'ydirgan, Quvontirgan, kuldigan,  
Elga mehr qo'ydirgan, Onajonlar bo'ladi.  
Shuning uchun mehribon, Onalarni ardoqlang.  
A'lo o'qib doimo, Ona hurmatin oqlang.  
Sakkizinchi mart bugun, Quvonchlarim bir jahon.  
Bayramingiz muborak, Aziz ona — onajon!

Ushbu she'r orqali o'quvchilarda onalarni o'z farzandlariga qay darajada mehnatlari singganini, ularni tarbiyalashda qanchalik zaxmatli yo'lni bosib o'tishini, borliqdagi barcha narsalarni tanishda ilk yo'l ko'rsatuvchi va bilim beruvchi onalarimiz ekanini singdirishimiz lozim.

4-sinf o'qish fani dasturida esa 8-martga oid mavzular umuman berilmagan. Bizning fikrimizcha 4-sinf dasturida 8-mart bayrami tarixi, qayerlarda ushbu bayram nishonlanishi haqida qisqacha ma'lumot berish va bayram tabrigini tayyorlash yuzasidan ma'lumotlar berish lozim. Chunki o'quvchilar 4-sinfga kelib tafakkur operatsiyalaridan tahlil, taqqoslash, xotira kabilar anchagina rivojlanganligi uchun bunday ma'lumotlar ularning kelgusida tarix va adabiyot fanlaridan ilk elementar bilimlar sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarning 8- mart bayramiga oid mavzular orqali jamiyatimizda onalar, ayollarning rolini yanada yaxshiroq anglab olar edilar.

## Tajriba-sinov ishlari


Biz tajriba sinov ishlarimizni Namangan shahar 7-umumta'lim maktabining 2–sinf o`quvchilarida olib bordik. O`qish darslarida 8-martga oid mavzularni o`tishdan oldin biz o`quvchilarni ushbu mavzuga doir bilimlarini aniqlash maqsadida sinov ishlarini o`tkazdik. Ushbu sinov natijalari quyidagicha bo`ldi:

### Tajribadan oldingi 2-A va 2-B sinfi o`zlashtirish natijalari jadvali

| Sinflar       | O`quvchilar soni   | Baholar |     |      |     |      |     |      |     |
|---------------|--------------------|---------|-----|------|-----|------|-----|------|-----|
|               |                    | 2       |     | 3    |     | 4    |     | 5    |     |
|               |                    | soni    | %   | soni | %   | soni | %   | soni | %   |
| Nazorat sinfi | 2-A<br>28<br>nafar | 4       | 10% | 10   | 36% | 10   | 41% | 4    | 13% |
| Tajriba sinfi | 2-B<br>26<br>nafar | 4       | 15% | 9    | 34% | 8    | 30% | 5    | 19% |

Tajribadan oldingi 2-A va 2-B sinfi o`zlashtirish natijalari jadvali quyida keltirilgan diagrammalarda nazorat va tajriba sinflarida o`quvchilarning tajribadan oldingi o`zlashtirish darajasi o`zaro taqqoslangan.

### Tajribadan oldingi 2-A va 2-B sinfi o`zlashtirish natijalari diagrammasi





Ushbu o`zlashtirish natijalari tahlil qilinib tajriba ob'ekti sifatida biz 2-B sinfini belgilab oldik. 2-A sinfi esa nazorat sinfi sifatida belgilandi. Shundan so`ng tajriba sinfi bo`lgan 2-B sinfida tajriba sinov ishlari boshlab yuborildi.

Tajriba sinov ishlari asosan mavzudan kelib chiqqan holda 1- sinf o`qish kitobi darsligidagi Mehribon oyijonim mavzusi yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etildi. Mavzular turli interfaol usullar asosida o`tildi. Asosan biz 2-B sinfda darslarni noan'anaviy tarzda yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan holda olib bordik. Har bir darsda o`quvchilarni rag`batlantirib, qilayotgan ishlarini kuzatib bordik.

“Aqliy hujum”, “BBB”, “Nima uchun”, “Insert”, “Klaster” kabi usullardan foydalanildi. Darslarda o`quvchilarning darsga munosabati, faolligi, o`zlashtirish darajasi doimiy nazorat qilib borildi. Kuzatishlar yuqoridagi tarzda tashkil etilganda o`quvchilarda katta qiziqish uyg`otayotganini, faolligi, mustaqil fikrlash qobiliyatlarining o`sib borayotganligini ko`rsatdi. Quyida ana shu tarzda tashkil etilgan darslar uchun dars ishlanmasidan namuna keltirib o`tamiz.

### **Mavzu: Mehribon oyijonim**

**(Po'lat Mo'min)**

#### **Darsning maqsadlari:**

**Ta'limiy maqsad:** « 8- mart bayrami haqida umumiy ma'lumot berish, ifodali o`qish ko`nikmasini rivojlantirish

**Tarbiyaviy maqsad:** o`zidan kattalarga, onalarga hurmatni, mehr-oqibatni tarbiyalash.


**Rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish.

**Dars metodi:** tushuntirish, suhbat, kuzatish, ijodiy ish, aqliy hujum, muammoli izlanish.

#### **Darsning borishi:**

1. O`tilgan mavzu-“Bahor” she'ri ifodali o`qitiladi.”Bahor fasliga doir suhbat o`tkaziladi. O`quvchilar ga bilgan topishmoq va she'rlarni aytiriladi.

2.O'qituvchi bahor fasli haqidagi fikrlarni xulosalaydi va bahor fasli nafaqat gullar bilan, balki bayramlar bilan ham go'zalligini ta'kidlaydi. Bahor faslida qanday bayramlar nishonlanishi eslanadi. Bunda klaster usulidan foydalanish mumkin.



Ushbu bayramlar ichida 8- mart bayrami bugungi kunda nishonlanadigan bayramlardan biri ekanligi eslatilib, bu bayram mohiyati, unda qanday ishlar amalga oshirilishi to'g'risida qisqacha suhbat o'tkaziladi.

Shundan so'ng o'quvchilarga bu bayram kimlarning bayrami ekan? degan savol qo'yiladi.

3. She'r ifodali o'qib beriladi. She'r muallifi Po'lat Mo'min haqida ham qisqacha ma'lumot beriladi.

Juda ham a'losiz oyijon

Juda ham donosiz oyijon

Siz meni qo'zim deb sevasiz

Nur to'la ko'zim deb sevasiz

Oyijon oyijon oyijon

Siz meni barchaga yaxshilab,

Quchasiz o'rgilib erkalab,

Shu aziz boshimni silaysiz

menga baxt omonlik tilaysiz

Oyijon oyijon oyijon

Shundan so'ng o'quvchilar bilan ona haqida suhbat o'tkaziladi. Ushbu suhbatni munozara metodi orqali tashkil etiladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib ularga quyidagicha savollar beriladi.

***Onaning ulug'ligi nimada nomoyon bo'ladi?***

O'quvchilar fikrini o'qituvchi doskaga yozib boradi.

|                                                                                                   |                                                              |                                                                                                            |                                                                                   |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| <b><u>1-guruh</u></b><br>1. Ona bizni dunyoga keltiradi.<br>2. Bizni kiyimlarimizni yuvadi.<br>3. | <b><u>2-guruh</u></b><br>1. Ona bizga oq sut bergan.<br>2... | <b><u>3-guruh</u></b><br>1 Onalarimiz bizni oq yuvib oq taraydi.<br>2Shirin ovqatlar pishirib beradi<br>3. | <b><u>4-guruh</u></b><br>1. Onalarimiz ayb ish qilsak tanbeh beradilar.<br><br>3. |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|

Ushbu javoblar to'ldirilib, umumlashtiriladi.

4. o'quvchilar she'rni ifodali o'qiydilar. So'ngra "Tezkor savol javob" usulida suhbat o'tkaziladi. Bunda berilgan savolga qaysi guruh eng ko'p javob bersa g'olib hisoblanadi.

-Qachon onajonlar bayrami nishonlanadi?

-Nima uchun onajonlarmizni shunchalik qadrlaymiz?

- Onajonlar haqida qanday maqol, hikmatli so'zlarni bilasiz?

8- mart bayrami uchun qanday sovg'a tayyorlagansiz?

5. Baholash va rag'batlantirish. G'olib guruhlar taqdirlanadi.


6. Uyga vazifa: She'rni ifodali o'qishga tayyorlanish va yod olish.

Darslarni ana shu tarzda tashkil etilgandan so'ng qayta sinov ishlari o'tkazildi. Qayta sinovda o'quvchilar o'qish va ona tili darslarida berilgan mavzular yuzasidan savol-javob va test asosida sinab ko'rilib natijalar umumlashtirildi. Ushbu natijalar ko'rsatkichi quyidagi jadvalda berilgan.

**Tajribadan keyingi nazorat va tajriba sinflari o'zlashtirish natijalari  
jadvali**

| Sinflar             | O'quvchilar<br>soni | Baholar |         |      |         |      |         |      |         |
|---------------------|---------------------|---------|---------|------|---------|------|---------|------|---------|
|                     |                     | 2       |         | 3    |         | 4    |         | 5    |         |
| Nazorat<br>sinflari | 28<br>2-A           | soni    | %       | soni | %       | soni | %       | soni | %       |
|                     |                     | 4       | 14<br>% | 10   | 35<br>% | 9    | 32<br>% | 5    | 17<br>% |
| Tajriba<br>sinflari | 26<br>2-B           | 2       | 7%      | 9    | 34<br>% | 9    | 34<br>% | 6    | 23<br>% |

**Tajribadan keyingi nazorat va tajriba sinflari o'zlashtirish natijalari  
diagrammasi**




Jadval va diagrammadan ko'rinib turibdiki tajriba ishlaridan so'ng 2-b tajriba sinfida o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligi 57 %ga o'sgan, nazorat sinfida esa bu deyarli o'zgarishsiz 49 %ni tashkil etyapti. Bundan tajriba sinfidagi o'lashtirish samaradorligi nazorat sinfiga nisbatan 8% o'sganini kelib chiqadi.

Shu bilan birga tajriba sinfining tajribadan oldingi o'zlashtirish natijalari bilan keyingi natijalarni solishtirib ko'radigan bo'lsak jadval tarzida uning ko'rinishi quyidagicha:

| Sinflar                                            | O'quvchilar soni        | Baholar     |          |             |          |             |          |   |          |
|----------------------------------------------------|-------------------------|-------------|----------|-------------|----------|-------------|----------|---|----------|
|                                                    |                         | 2           |          | 3           |          | 4           |          | 5 |          |
| <b>Tajriba sinflari</b><br><b>Tajribadan oldin</b> | <b>28</b><br><b>2-A</b> | <b>soni</b> | <b>%</b> | <b>soni</b> | <b>%</b> | <b>soni</b> | <b>%</b> |   | <b>%</b> |
|                                                    |                         | 4           | 15%      | 9           | 34%      | 8           | 30%      | 5 | 19%      |
| <b>Tajriba sinfi</b><br><b>tajribadan keyin</b>    | <b>26</b><br><b>2-B</b> | 2           | 7%       | 9           | 34%      | 9           | 34%      | 6 | 23%      |

**Tajriba sinfining tajribadan keyingi va oldingi o'zlashtirish natijalarining solishtirma diagrammasi**



Umumiy o'zlashtirish samaradorligi esa 49% dan 57% ga ko'tarilgan, yani bunda 8%ga o'sishni kuzatishimiz mumkin. Ushbu o'zlashtirish natijalari tahlilidan xulosa qilib aytishimiz mumkinki olib borilgan tajriba -sinov ishlari haqiqatdan ham samarali bolib, o'qish darslarida 8- mart haqidagi asarlarni yangicha tarzda o'rganish orqali biz o'quvchilarni har tomonlama puxta bilim olishlariga va ta'lim sifatini oshirishga erishishimiz mumkin bo'ladi.

## **Xulosa va tavsiyalar**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ilk maktab yoshidan boshlab ayollarga hurmat hissida tarbiyalash, ularga ehtirom ko'rsatishga o'rgatish orqali biz jamiyatimizdagi ahloqiy qoidalarga amal qilgan holda ularning rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Ayniqsa ulkan ehtirom ramzi sifatida nishonlanadigan 8-mart xalqaro-xotin qizlar kuni bayrami o'quvchilarda yuqoridagi sifatlarni tarbiyalashda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ushbu bayramga oid mavzularni o'tish orqali biz o'quvchilarda jamiyatda ayollar, qizlarning o'rnini ular eng avvalo ona, opa qolaversa eng asosiy tarbiya beruvchilar ekanini o'quvchilarga singdirgan holda ta'limiy tarbiyaviy ishlarni tashkil etishimiz lozim. Shuning uchun o'quvchilarga berayotgan bilimlarmiz yanada yaxshi samara berishini ta'minlashda turli zamonaviy usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Odatda o'qituvchining o'quvchilarga bir xil qolipda dars o'tishi an'anaga aylangan. Endilikda esa o'quvchilarga mustaqil topshiriq berish, darsga mustaqil tayyorgarlik ko'rib kelish, berilgan mavzu yuzasidan erkin fikr bildirishni yangi usulda dars o'tishni asosi deb bilamiz. Noan'anaviy usulda biz o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruhlariga bo'lib dars o'tishimiz mumkin. Bunda har bir o'quvchi bilan yakka tartibda ishlashga imkoniyat bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda dars o'tishda asosan o'yin uslubidan, modulli texnologiyadan fanlararo integratsiyadan foydalanish mumkin. Bu usullarning hammasi ham bolalardan mustaqil ishlashni, o'z fikrini erkin bayon etishni, keng fikrlashni talab etadi.

O'quvchi faol bo'lishi uchun, avvalo o'qituvchi faolligi talab etiladi. Darhaqiqat faollik-buguning eng muhim tushunchasi. Chunki, Vatanimizning ravnaqi, ta'lim taraqqiyoti ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi bilan chambarchas bog'liq. Afsuski, faollikka daxldor ommaviylik borasida muammolarning borligi sir emas. Qirq daqiqa davom etadigan dars jarayonida bir og'iz so'zlamaydigan "indamas" o'quvchilar, darslikdan ko'z olmaydigan o'qituvchilar oramizdan ko'plab topiladi.

Biz adabiyotlar tahlili va tajriba – sinov natijalariga sutangan holda quyidagi uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqdik.

Boshlang'ich sinf o'qish darsligidagi 8-mart mavzusiga oid mavzularni o'tishda:

- darslarni 8-mart bayrami ruhida tashkil etish;

- “Insert”, “Nima uchun” kabi turli xulosaga keltiruvchi metodlardan foydalanish samarali natijalarni beradi;

- tahlil va taqqoslash yuzasidan berilgan mavzularda BBB, Klaster, Venna diagramma texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir;

- munosabat bildirish xulosa chiqarishga oid mavzularni o'rganishda esa aqliy hujum usulidan foydalanish samarali natija beradi;

- o'tilganlarni takrorlash yuzasidan esa tezkor savol javoblarni qo'llash maqsadga muvofiqdir (umumlashtiruvchi darslarda);

- ushbu usullardan darslikdagi boshqa mavzularni o'rganishda ham foydalanish orqali dars samaradorligiga erishish mumkin.

Bugungi kunda o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishga va rivojlantirishga kuchli ehtiyoj mavjudligini hisobga olgan holda, nafaqat yuqori sinf o'quvchilari ta'lim dasturida, balki boshlang'ich sinf o'quvchilari darsliklarida ham hadislardan o'rinli ravishda foydalanib borish, o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish vazifalari davrimizning eng dolzarb muammolari hisoblanadi. Bu muammolar o'quvchilarda yuksak ahloqiy fazilatlar: mehr–oqibat, halolik, insonparvarlik, vatanparvarlik, hurfikrlilik, odamiylik kabi sifatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. qolaversa, bunday ilmiy–amaliy va o'quv jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars o'tishda hadislardan unumli va o'rinli foydalanish, ta'limning shakl va usullari uyg'unlashuvini keltirib chiqaradi. Xususan, suhbat, bahs–munozara, aqliy hujum usullari, har xil tadbirlar va to'garaklar tashkilida, dars mashg'ulotlarini, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish natijasida hadislarni o'quvchilarga o'rgatish maqsadning tez va aniq bajarilishini ko'rsatadi.

Umuman, yakuniy xulosa qilganimizda, boshlang'ich sinf o'quvchilari

ma'naviyatini ona haqidagi asrlar vositasida shakllantirganimizda boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy dunyosiga mos keluvchi va ulardagi fikrlar ko'lamini kengaytiruvchi, bunyodkor g'oyalarni shakllantiruvchi, ma'naviy bo'shliqning oldini oladigan, ta'lim tizimidan chetga chiqmagan dastur ishlab chiqishimiz zarur. Va o'z navbatida ushbu dastur boshlang'ich sinflarda hadislarini o'qitish uchun o'quv qo'llanmada keltirilgan didaktik o'yinlar, to'garak tashkillashtirish ishlari, berilgan badiiy kechalardan sinfda va sinfdan tashqari ishlarni bajarish va olib borish jarayonida unumli foydalanish mumkin.

Ona haqidagi asrlar shu kungacha va bundan keyin ham ta'limiy va ma'naviy katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ona haqidagi asrlardan ta'lim-tarbiya tizimida va ma'naviyatimiz rivojida foydalanmog'imiz, asarlarni ta'limning qator jabhalariga, xususan boshlang'ich sinf dasturiga ham tadbiq etmog'imiz, kelajagimiz yuksalishiga qaratilgan asosiy maqsadlardan biridir.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

### **I Siyosiy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1998.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.: 1997. 5- jild.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonuni. T.: 1997
4. O'zbekiston Respublikasining Milliy dasturi. T.: 1998.
5. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim., 2006, 5- son .
6. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim 2006, 5- son

### **II Ilmiy-uslubiy adabiyotlar:**

1. Abdullayeva K., Nazarov K., Yo'ldosheva Sh., Savod o'rgatish darslari. T.: "O'qituvchi", 1996-yil
2. Gapparova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G., Alifbe (Savod) T.: "O'qituvchi", 1999 -yil
3. Safarova R. va boshkalar "Alifbe" T., 2006-yil
4. Gulomov M. Yozuv daftari. T., "Ma'naviyat", 2006 -yil
5. Safarova R. Va b. Savod o'rgatish. T.: "Ma'naviyat". 2003-yil
6. Gafforova T. Gulomova X. Eshturdiyeva G. 1- sinfda savod o'rgatish. T.: "Sharq", 1996-yil
7. Gapparova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. Ona tili . 1-sinf uchun. T.: "O'qituvchi", 1999-yil
8. Abdullayeva K. va boshqalar., Ona tili., T.: "O'qituvchi", 1999-yil
9. Gapparova T., Shodmonov E., Gulomova X. Ona tili . 1-sinf uchun. T.: "Sharq", 2005-yil
10. Gulomova X. Gafforova T. 1- sinfda ona tili darslari. T.: "Sharq", 2003-yil
11. Kosimova K. Fuzailov S. Ne'matova A. Ona tili., 2- sinf uchun T.: "Cho'lpon", 2005-yil
12. Kosimova K., Ne'matova A. 2- sinfda ona tili darslari T.: "Cho'lpon", 2004-yil

- 13.Fuzailov S., Xudoberganova M., Ona tili . 3- sinf uchun T.: “O’qituvchi”, 2005-yil
- 14.Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3- sinfda ona tili darslari. 3- sinf uchun T.: “O’qituvchi”, 2005-yil
- 15.Ikromova R. G’ulomova X. Yo’ldosheva Sh. Shodmonqulova D. Ona tili . 4- sinf uchun T.: “O’qituvchi”, 2007-yil
- 16.Gulomova X. Yo’ldosheva Sh.Shermatova U. 4- sinfda ona tili darslari. T.: “O’qituvchi”, 2003-yil
- 17.Gaffarova T. va boshqalar . O’qish kitobi . 1-sinf uchun. T. : 2006-yil
- 18.Gaffarova T. va boshqalar. 1-sinfda o’qish darslari . T. : 2003-yil
- 19.Abdullayeva K. va boshqalar. O’qish ktobi . 2- sinf uchun. T.: 2006-yil
- 20.Abdullayeva K. va boshqalar. 2- sinfda o’qish darslari , T.: 2004-yil
- 21.Umarova M. , Hakimova Sh. O’qish kitobi. 3- sinf uchun, T.: 2006-yil
- 22.Umarova M. 3- sinfda o’qish darslari , T.: “O’qituvchi”, 2004 -yil
- 23.Matchonov S. Shojalilov A. G’ulomova X. Sariyev Sh. O’qish kitobi, 4- sinf uchun. T.: 2007-yil
- 24.Matchonov S. va boshqalar 4- sinfga o’qish darlari , T., 2007-yil
- 25.Xudoberganova M. “ Bayonlar to’plami ” Toshkent 1995-yil
- 26.Рождественский Н.С. Кустарева ВА. Методика начального обучения русскому языку, Просвещение. М.: 1965 год
- 27.Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: “Fan”, 2006-yil
- 28.Yo’ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari., T.: “O’qituvchi”, 2004-yil
- 29.Umumiy psixologiya. T.: “O’qituvchi”, 1999-yil
- 30.O’quvchi ma’naviyatini shakllantirish. T.: “Sharq”, 2000-yil
31. Кудряшов Н.И. Взаимосвяз методов обучения на уроках литературы, М.: “Просвещение”.